

## **“COSCOM” МЧЖ тармоғи PREPAID тизимида уяли радиотелефон алоқа хизматларини кўрсатиш тўғрисида Оммавий Оферта**

«COSCOM» масъулияти чекланган жамияти (қисқартирилган номи «COSCOM» МЧЖ) “Ucell” савдо белгиси (кейинги матнларда «Компания») Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш Вазирлиги томонидан тақдим этилган 17.12.2018 даги АА 0006634, 17.12.2018 даги АА 0006636, 17.12.2018 даги АА 0006637, 17.12.2018 даги АА 0006638 ҳамда 19.07.2021 даги АА 0007183 сонли Лицензиялари асосида, шу билан бирга «COSCOM» МЧЖ тармоғи PREPAID тизимида уяли радиотелефон алоқа хизматларини кўрсатиш тўғрисидаги мазкур Оммавий Оферта (кейинги матнларда «Оммавий Оферта») шартларини қабул қилган жисмоний шахсларга, Рўйхатга олиш шакли (кейинги ўринларда – “Шартнома”) имзолаш орқали уяли радиотелефон алоқа хизматларини тақдим этади.

### **1. АТАМА ВА ТАЪРИФЛАР**

**1.1.** Мазкур Оммавий Оферта мақсадларини ифодалашда куйидаги атама ва таърифлар қўлланилади:

**Абонент** – уяли радиотелефон алоқа хизматларидан фойдаланиш ва абонентлик рақамини олиш мақсадида Компания билан уяли радиотелефон алоқа хизматини кўрсатиш шартномасини тузган, муомалага лаёқатли (14 - 18 ёшгача бўлган вояга етмаганлар телекоммуникация хизматларига уланишда ота-оналари ёки васийларининг ёзма розилиги асосида мурожаат қилишлари мумкин) бўлган, Компания хизматларидан бевосита фойдаланувчи 18 ёшга тўлган ҳар қандай жисмоний шахс.

**Абонент рақами** – Шартнома амал қилиш муддати давомида, абонентга оператор томонидан ажратиладиган, абонент томонидан фойдаланиладиган, Компания тармоғига уланган абонент қурилмаси ва бошқа абонент қурилмалари билан уланишда идентификатсияланадиган рақам.

**Абонент қурилмаси** – Абонент мулки бўлган ёки унга вақтинча эгалик қилиш ва фойдаланишга берилган, Компания тармоғига боғланадиган ва у орқали узатиладиган ёки қабул қилинадиган сигналларни ҳосил қилиш, ўзгартириш, қайта ишлаш учун мўлжалланган техник восита. Абонент қурилмаси Ўзбекистон Республикасида амал қилаётган стандартларга мувофиқ, ускунанинг ушбу турига қўйиладиган белгиланган техник талабларга жавоб бериши керак.

**Абонент тўлови** – Абонентинг маълум (ҳисоб-китоб қилинадиган) вақт даври (ой, чорак, йил ва б.) учун тўловлари суммаси ҳақида олинган хизматлар ҳажмига боғлиқ бўлмаган доимий миқдор ҳисобланадиган хизматларга ҳақ тўлаш.

**Абонент шахсини тасдиқловчи ҳужжатлар:**

- амалдаги турар жойи бўйича рўйхатдан ўтганлиги ҳақидаги ёзув киритилган ёхуд алоҳида турар жой қайд этилган варака тақдим этилган, ЖШШИР кўрсатилган, Ўзбекистон Республикаси фуқаролик паспорти (Ўзбекистон Республикасида паспорт тизими тўғрисидаги Низомнинг 5-бандига мувофиқ фуқароларга 16 ёшдан бошлаб паспорт берилади);
- чет эл фуқароси паспорти;
- офицер гувоҳномаси, ҳарбий йўлланма (билет) + № 33 формаси (шартнома)

бўйича хизмат ўтаётган шахслар ва ҳарбийлар учун);

- аккредитациядан ўтганликни тасдиқловчи карта (дипломатик ваколатхоналар ва топшириқ ўтаётган ходимлар учун);
  - фуқаролиги бўлмаган шахслар учун яшаш ҳуқукини тасдиқловчи ёки хорижга чиқувчи, амалдаги турар жойи бўйича рўйхатдан ўтганлиги ҳақида ёзув киритилган ёхуд алоҳида турар жой қайд этилган варақа тақдим этилган хужжат;
  - фуқаролиги бўлмаган шахснинг амалдаги турар жойи бўйича рўйхатдан ўтганлиги ҳақида ёзув киритилган ёхуд алоҳида турар жой қайд этилган варақа тақдим этилган гувоҳномаси;
  - янги намунадаги миллий ҳайдовчилик гувоҳномаси;
  - ID-карта - Ўзбекистон Республикаси шахс гувоҳномаси (Ўзбекистон Республикаси фуқароларига ID – карта тўғрисидаги Низомга мувофиқ ID- карта 1 ёшдан 16 ёшгача (отаоналар, васийлар (хомийлар) ихтиёрига кўра тақдим этилади).

Юқорида кўрсатилган барча хужжатлар бир бирининг ўрнини босиши мумкин.

**Дилер** – Компания номидан абонентларга хизмат кўрсатишда, Компания билан шартнома тузган юридик шахс. Дилер бир ёки бир нечта уяли алоқа операторлари манфаатларини ифодалаши мумкин.

**Дилерлик хизмат кўрсатиш пункти** - дилер томонидан абонентларга хизмат кўрсатиш учун ташкил этиладиган ва фойдаланиладиган хизмат кўрсатиш пункти.

**ЖШШИР** – (Ўзбекистон Республикаси жисмоний шахсини шахсий идентификация рақами) аниқлаш тартибига мувофиқ жисмоний шахснинг паспорти бўйича аниқлаш мумкин бўлган ва 14 рақамдан иборат шахсий идентификация рақами.

**Йирик авария** – маълум бир административ худудда уяли радиотелефон алоқа хизматлари кўрсатилиши тўхталишига олиб келадиган авария ҳолати.

**Компания веб-сайти** – Интернет тармоғида электрон манзили: [www.ucell.uz](http://www.ucell.uz) бўлган Компаниянинг ахборот ресурси.

**Компания офиси** — Абонентлар ахборот-маълумот хизматларини олишлари, мобил алоқа хизматларини кўрсатиш шартномаларини тузишлари ва хизматларини бошқа турларини олишлари мумкин бўлган жисмоний ва юридик шахсларга хизмат кўрсатувчи, Компаниянинг ҳар қандай расмий офиси.

**Компания тармоғи** – Абонентга уяли радиотелефон алоқа хизматларини овоз, маълумот, расм, видео ва бошқа шаклдаги сигналларни узатиш ва қабул қилишни таъминловчи техник воситалар мажмуйи.

**Компания хизматлари** — Ucell савдо белгиси остида тақдим қилинадиган уяли радиотелефон алоқа хизматлари, мобил Интернет тармоғидан фойдаланиш, шунингдек Компания тармоғи орқали олинадиган, узатиладиган, қайта ишланадиган ахборотнинг бошқа турларини тақдим этиш фаолияти маҳсули.

**Контент** – Абонент сўрови асосида, ахборот, кўнгилочар ёки бошқа мазмунга эга бўлган, SMS, GPRS орқали олинган матнли ёки мультимедиа маълумотлари.

**Контент-провайдер** – тиҷорий фаолият асосида, Компания тармоғи орқали Абонентларга Контент хизматларини кўрсатувчи юридик шахс. Контент-провайдерлар ва улар кўрсатадиган Контент хизматлари рўйхати Компания Веб-сайти ҳамда Контент-провайдерларнинг вебсайтларида мавжуд.

**Конференц-алоқа** – Учта ва ундан ортиқ аборентга бир вақтда телефон орқали муроқот қилиш, сұхбат пайтида аборентларнинг ҳар бири билан навбатма-навбат уланиш ёки қолган иштирокчиларнинг сұхбатдаги алоқасини узмай, биргаликдаги сұхбатда үз иштирокини тұхтатиш имконини берувчи хизмат.

**Күчирилған рақамлар марказлаштирилған базасы** (бундан бүён матнда КРМБ деб юритилади) - мобил алоқа тармоқларида күчирилған аборент рақамлари түгрисидаги ахборотни, шу жумладан, ушбу низомда белгиланадиган маълумотларни үз ичига олган маълумотлар базасини бошқарувчи аппарат-дастурий комплекс.

**МЧЖ «COSCOM» Компанияси** – Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ равища рўйхатдан ўтказилған ва фаолият юритаётган, мобил алоқа тармоғига эга бўлган, унинг қурилиши, ишлшини, ривожланишини таъминлайдиган ва уяли радиотелефон алоқа хизматларини тақдим этадиган корхона.

**Оператор Донор** - телекоммуникациялар тармоғидан аборент рақами күчириладиган мобил алоқа оператори.

**Оператор Реципиент** - тармоғига аборент рақами күчириладиган мобил алоқа оператори.

**Прайс варақалар** – Компаниянинг асосий хизматлари рўйхатини үз ичига олган, уларнинг шартлари ва/ёки қисқа тавсифлари ва жорий давр учун қиймати кўрсатилған ахбориймаълумот берувчи хужжат.

**Роуминг** – аборент бир мамлакатда ёки бошқа мамлакатнинг уяли алоқа оператори хизмат кўрсатиши зонасида бўлганида, бир уяли алоқа операторига бошқа мобил алоқа операторлари тармоғидан фойдаланиш имконини берувчи хизмат.

**Рўйхатга олиш шакли** – Шартноманинг ажралмас қисми саналган, аборентлик рақами, Аборент томонидан аввалроқ танланган тариф режаси кўрсатилған, аборент ҳақидаги маълумотларни үз ичига олган ва ушбу шакл имзоланиши орқали Оммавий Офертанинг барча шартлари тўлиқ ва сўзсиз қабул қилинишини тасдиқловчи, Компания томонидан белгиланган намунашудаги шакл.

**Тарификациялаш** – (қатъий баҳо белгилаш) бирлиги – Компания хизматларининг тегишли тури учун тўлов олинадиган вақт, миқдор ёки маълумот ҳажмининг ўлчов бирлиги.

**Тариф режаси** – Компания томонидан аборентларга ёки аборентларнинг маълум гурухига ёки маълум бир чекланган ҳудудда бир ёки бир нечта хизматлардан фойдаланишини тақдим этадиган, нархлар ва техник маълумотлар мажмуйи.

**Тарификация (қатъий баҳо белгилаш) бирлиги** – кўрсатиладиган хизматларга, Компания томонидан белгиланган тарификация тизимиға боғлиқ бўлган тўлов бирлиги.

**Тўлов картаси** – пластик карта шаклида ёки компания томонидан белгиланадиган бошқа шаклда, махфий код, ҳимоя қатлами бўлган, унда кўрсатилған миқдор/номинал қиймати билан аборентга, аборентнинг шахсий ҳисобини активлаштириш имкониятини берувчи тўлов воситаси.

**Уяли радиотелефон алоқа оператори** — Мулк ҳуқуқи ёки бошқа мулкий ҳуқуқлар асосида телекоммуникация тармоғига эга бўлган, унинг қурилиши, фаолият юритиши, ривожланишини таъминловчи ва лицензия асосида тегишли телекоммуникация хизматларини кўрсатувчи юридик шахс.

**Фрод** – ахборот технологиялари соҳасида фирибгарликнинг тури, хусусан, рухсат берилмаган харакатлар ва алоқа тармоғида хизматлар ва ресурслардан ноқонуний фойдаланиш.

**Шлюз** – Мобил алоқа тармоқлари ва телекоммуникацияларнинг бошқа тармоқлари ўртасида, халқаро трафикни ўтказиш ва фойдаланиш мақсадида, ўрнатилган хавфсизлик тизимларини четлаб ўтган холда, телекоммуникация тармоғига сервер ёки бошқа ускуна орқали, ноқонуний (рухсатсиз) уланувчи, Компания тармоғи ва бошқа алоқа тармоқлари ўртасида овозли ва/ёки овозсиз ахборот ўтказилишини амалга ошириш имконини берувчи (жумладан мобил алоқа, кўчмас (стационар) алоқа, маълумотлар узатиш ва бошқалар орқали) ва/ёки учинчи шахсга Компания тармоғидан фойдаланиш имконини берувчи GSM, SMS, IP аппарат дастурий восита.

**Хизмат кўрсатиши зонаси** – Компания, лицензия шартномаси асосида уяли радиотелефон алоқа хизматларини кўрсатиши хуқуқига ва норматив-хуқукий хужжатлар билан белгиланган шартларга мувофиқ хизматлар сифатини таъминлаш учун техник имкониятларга эга бўлган худуд.

**Хисоб рақам** – Абонент билан тузилган ушбу Шартномага мувофиқ, кўрсатилган хизматлар ҳажми, пул маблағларининг тушими ва сарфини ҳисоблашда, Компания биллинг тизимидағи аналитик ҳисоб регистри (рўйхати).

**eSIM** - абонент курилмасининг виртуал идентификация модули, унинг ёрдамида абонент курилмасини идентификация килиш, унинг мобил алоқа тармоғидан фойдалана олиши, шунингдек, абонент ракамидан рухсатсиз фойдаланишдан химоя килиш таъминланади.

**GPRS - General Packet Radio Service.** GSM тармоқларида қўлланиладиган интернетпротокол бўйича маълумотларни ўтказиш технологияси. GPRS маълумотларни пакет режимида ўтказиб, хизмат учун тўлов GPRS -сессиянинг давомийлигига боғлиқ бўлмаган холда, юборилган ва олинган маълумотларнинг ҳажмига пропорционал равишда ундирилади.

**IMEI коди (International mobile Equipment Idenfiter)** ёки халқаро ўзига хос идентификация коди- 15 рақамдан иборат бўлган ва GSMA томонидан ажратиладиган, шунингдек, тармоқда GSM/UMTS/LTE стандартларида ишловчи мобил алоқа абонент курилмасини идентификацияловчи рақам.

**MNP (Mobil Number Portability)** абонент рақамининг кўчиб ўтиши - мобил алоқа хизматларини кўрсатиши шартномаси асосида донор томонидан ажратиладиган, шунингдек, тармоқда GSM/UMTS/LTE стандартларида ишловчи мобил алоқа абонент рақамини бошқа мобил алоқа оператори (реципиент) билан янги шартнома тузишда сақлаш ва ундан фойдаланиш учун амалга ошириладиган ташкилий-техник тадбирлар мажмуи.

**PIN** - Personal Identification Number. Уяли алоқа тармоғи абонентини идентификациялаш учун қўлланиладиган код. Одатда тўрт рақамдан иборат бўлади. SIM-картага боғланган, лекин абонентнинг хохишига биноан телефон менюси ёрдамида ўзgartирилиши мумкин. Агарда абонент ўз телефонидаги тегишли функцияни мустақил равишда ўчирмаган бўлса, телефон ёқилганда PIN сўралади.

**PUK** - Personal Unblocking Code. SIM-картага боғланган, Компания билан шартнома тузганда бериладиган, SIM-карта блокланган холда, уни очиш учун қўлланиладиган код. Масалан, PIN кодни бир нечта маротаба нотўғри киритиш натижасида ҳам PUK код сўралади.

**SIM-карта** – Ичига микросхема ўрнатилган, олинувчи идентификация модули, унинг ёрдамида абонент курилмасини идентификация қилиш, унинг мобил алоқа тармоғидан

фойдалана олиш, шунингдек, абонент рақамидан рухсатсиз фойдаланишдан ҳимоя қилиш таъминланади.

**SMS қисқа матнли хабар** - Short Message Service, — Қисқа хабарлар маркази орқали алоқа абонентларига қисқа матнли хабарларни узатиш ва қабул қилиш учун мўлжалланган хизмат.

**Face ID** - одамнинг юз шакли ҳажмини сканерлаш. Тизим қўйидаги мақсадларда қўлланилади:

- фойдаланувчиларнинг шахсини тасдиқлаш (аутентификация);
- шахснинг ҳақиқийлигини тасдиқлаш (верификация қилиш).

Шартномаларни тузишда қонун ҳужжатларида назарда тутилган бошқа ҳолларда, қонунда ёки томонларнинг келишувида ҳужжатни ўз қўли билан имзолаш талаб қилинган ҳолларда, агар шартнома тарафи тасдиқлаш тартиб-таомилини электрон рақамли имзо орқали имзолаган бўлса, электрон ҳужжат имзоланган ҳисобланади. Face-ID имзо ва электрон тасдиқ сифатида тан олинади, бу розиликни билдиради ва ҳужжат имзолаган шахси идентификациялаш ва аутентификация қилиш имконини беради.

## **2. ОММАВИЙ ОФЕРТА ПРЕДМЕТИ.**

**2.1.** Компания, танланган Тариф режаси ва алоқа Хизматларини кўрсатиш шартларига мувофиқ тарзда Абонентга уяли радиотелефон алоқа хизматларини кўрсатиш жавобгарлигини ўз зиммасига олади. Абонент эса, мазкур Оммавий Офертада кўрсатилган, шартлар ва тартиблар асосида тўловни ўз зиммасига олади.

**2.2.** Ушбу Оммавий Оферта барча Абонентларга нисбатан бир хил кучга эга бўлиб, Абонент билан аввалроқ тузилган МЧЖ «COSCOM» тармоғида уяли радиотелефон алоқа хизматларини PREPAID тизимида тақдим этиш учун Шартнома ўрнини эгаллайди. Абонентларга алоқа Хизматларини кўрсатиш, мазкур Оммавий Оферта, Компания веб-сайтида тақдим қилинган вақтдан бошлаб, Оферта шартларига мувофиқ тарзда белгиланади. Бунда, имзолаш/қайта имзолаш учун Рўйхатга олиш шакли шарт эмас. Оммавий Оферта шартларига нисбатан норозилик пайдо бўлса, Абонент Оммавий оферта тақдим қилинган кундан бошлаб, 30 кун давомида Компания веб-сайти орқали, ёзма равишда Оммавий Оферта шартларини қабул қилишдан бош тортиши тўғрисида хабар бериши лозим. Ушбу Оммавий оферта шартларини бажаришдан бош тортиш тўғрисидаги Абонент Аризаси белгиланган муддатда Компанияга тақдим этилмаслиги конклюдент хатти-харакат (Алоқа хизматларидан амалда фойдаланиш) деб қабул қилинади ва ушбу оммавий оферта шартларини Абонент томонидан тўлиқ ҳамда сўзсиз қабул қилинишини англаради.

**2.3.** Абонент ушбу оммавий оферта шартларини сўзсиз ва тўлиқ қабул қилганда, компания абонентга Рўйхатдан ўтиш бланкида (шакл) кўрсатилган абонент рақамини фойдаланиш учун тақдим этади.

**2.4. Бирламчи хизматлар рўйхати:**

- Voice\*
- SMS\*
- GPRS\*
- Ҷақираётган абонент ракамини аниқлаш

- Чакирикни бошқа рақамга йўналтириш
- Конференц-алоқа
- Кўнғироқларни тақиқлаш
- Чакирикни кутиш /ушлаб туриш
- Ucell Roaming
- Менга қўнғироқ қил

\*компания ускуналари даражасида деактивация қилинмайдиган асосий хизматлар.

Абонент, ўз хоҳишига кўра, USSD йўли билан ёхуд Компания офисларига мурожаат қилган ҳолда ёки Компания томонидан таклиф қилинган бошқа усул билан Компания томонидан тақдим этиладиган бошқа хизматларга уланиши ва аксинча ўчириши мумкин.

### **3. ТОМОНЛАРНИНГ ХУҚУҚЛАРИ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ**

**3.1.** Компания қуйидаги ҳуқуқларга эга:

**3.1.1.** Бир томонлама тартибда Оммавий Офертани, Рўйхатга олиш шаклни (бланкини), уяли радиотелефон алоқа хизматлари ва тарификацияларни тақдим қилиш тартиб ва шартларини ўзгартириш.

**3.1.2.** Абонент томонидан Шартнома шартлари бажарилмаганда, хизматлар тақдим қилишни чеклаш ёки тўхтатиб қўйиш, шу билан бирга:

**3.1.2.1.** Абонент томонидан Компаниянинг Хизматларидан фойдаланган ҳолда Компанияга, шунингдек, бошқа абонентлар ва/ёки учинчи шахсларга зарар етказилганда, шу билан бирга қуйидагилар билан чекланмасдан: мавжуд бўлмаган тўлов карталарини бир неча маротаба фаоллаштиришга уринишда, Компания билан ёзма равишда келишувисиз абонентлик рақамидан лотерея, овоз бериш, танловлар, реклама, сўровномалар, спам, фирибгарлик, оператор билан олдиндан келишмасдан оммавий SMS жўнатмалар, шунингдек бошқа ноқонуний фойдаланиш, оммавий ахборот тарқатишда ва Компаниянинг ускуналари ҳамда алоқа мосламаларининг иш фаолиятини бузилишига олиб келувчи бошқа тадбирларда фойдаланилганда.

**3.1.2.2.** Ваколатли органларнинг, бошқа операторларнинг хабарларига асосан ва/ёки Компания мустақил равишда Абонент томонидан халқаро трафикнинг ноқонуний ўтказилиши ҳамда GSM, IP ёки SMS шлюзлардан яширин фойдаланишга қарши чораларни қўриш, шу жумладан, тармоқда маҳсус аппарат — дастурй воситаларни ўрнатиш йўли билан тармоқдан фойдаланилганлик ҳолатлари аниқланганда.

**3.1.2.3.** Абонентнинг Шахсий ҳисоб рақамида Хизматлардан фойдаланиш учун етарли пул маблағлари бўлмаган ҳолатларда.

**3.1.2.4.** Агар абонент томонидан танланган хизматларнинг таърифланишига мувофиқ, Компания белгилаган муддат ичида, абонент пуллик ҳаракатлар (абонентнинг шахсий ҳисоб рақамидан пул маблағларини очиб олишга сабаб бўла оладиган, абонент курилмаси ёки тизим орқали барча ҳаракатлар) амалга оширгмаган бўлса.

**3.1.2.5.** Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатларида кўрсатиб ўтилган бошқа ҳолатларда.

**3.1.3.** Хизматлар кўрсатилишини чиқиш қўнғироқлари (фавқулоддаги маълумот олишдан ташқари), кириш қўнғироқларини, SMS, GPRS ва Абонентнинг бошқа пуллик, бепул хизматларини блоклаш йўли билан қисман ёки бутунлай тўхтатиш хукуқига эга:

- абонентнинг шахсий маълумотларининг унинг шахсини тасдиқловчи актуал ҳужжатга тўғри келмаслиги;
- компанияда Абонентнинг шахсини тасдиқловчи ҳужжат нусхалари ва/ёки Абонентлик рақами уланишида имзоланадиган ҳужжатларнинг асл нусхалари мавжуд эмаслиги;
- компаниянинг ички ҳужжатлари билан назарда тутилган бошқа вазиятларда.

Абонентнинг блокланган ҳолатга ўтказилишида, Абонентга тегишли SMS -хабар юборилади. Бунда, Абонент тегишли SMS -хабар олган кундан бошлаб 10 (ўн) иш куни давомида ўз шахсий маълумотларини янгилаш учун Компания оғисларига мурожаат қилиши ёки Компания расмий веб-сайтида «Шахсий маълумотларини янгилаш» хизмати орқалик ўзининг шахсий маълумотларини актуализациялаши зарур. SMS -хабар фақатгина маълумот етказиш хусусиятига эга ва унинг мавжуд эмаслиги/қабул қилинмаслиги Абонентни ушбу Оммавий Офертанинг **3.4.7** бандида кўрсатилган шартларни бажаришдан озод этмайди. Компания Абонент олдида юқорида айтиб ўтилган SMS -хабарни олмаганлиги учун жавобгар бўлмайди.

**3.1.4.** Компания шартнома тузилган кундан бошлаб 31 кун ичидаги чиқувчи (фавқулодда вазиятлар ва маълумотлар олиш бундан мустасно) қўнғироқлар, SMS, GPRS ва/ёки бошқа пуллик/роуминг хизматлари амалга оширгмаган, шахсий ҳисоб рақамини тўлдирмаган тақдирда, шартномани бир томонлама бекор қилишга ҳақлидир.

**3.1.5.** Зарурият туғилганида, Абонент рақамини ўзгартиришдан камида 10 (ўн) кун олдин Абонентга олдиндан хабар берган ҳолда, Абонентлик рақамини ўзгартириш.

**3.1.6.** Компания, Компания ва учинчи томоннинг реклама/ахборот/SMS хизмат хабарларини юбориш хукуқига эга.

**3.1.7.** Компания ўз хизматларини ҳамда ҳамкорлари билан биргаликда кўрсатиладиган хизматларни тарғиб қилиш мақсадида турли маркетинг кампаниялари, акциялар, дастурлар, совринли ўйинлар ва шунга ўхшаш тадбирларни ўтказиш хукуқига эга. Улар бўйича батафсил шартлар / қоидалар / оферта Компания оғисларида, Компаниянинг Дилерлари савдо нуқталарида, шунингдек, Компания танловига кўра, оммавий ахборот воситаларида ёки Компаниянинг веб-сайтида ёки мобил иловасида жойлаштирилади.

**3.1.8.** Компания қўйидаги ҳолларда абонент рақамини бошқа уяли алоқа оператори тармоғига ўтказишни рад этишга ҳақли:

- тарифлар ва (ёки) хизматлар бўйича қарздорлик бўлса;
- абонентнинг шахсий маълумотлари Абонентнинг амалдаги шахсини тасдиқловчи ҳужжатга мос келмас; - блокланган ҳолатда бўлса.

**3.1.9.** Компания Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ тарзда бошқа хукуқларга эга бўлиши мумкин.

**3.2.** Абонент қўйидаги хукуқларга эга:

**3.2.1.** Амалдаги Прайс-варакларда ва/ёки компаниянинг ахборот материалларида кўрсатилган тартиб-қоидаларга мувофиқ фойдаланиладиган хизматлар рўйхатини ўзгартириш.

**3.2.2.** Компанияга Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ тарзда Шартноманинг бажарилиши устидан шикоятлар юбориш.

**3.2.3.** Компания олдида қарздорлиги мавжуд бўлмаган ҳолда, Компания томонидан ўрнатилган тартибда Шартномани бошқа шахсга расмийлаштириши.

**3.2.4.** Компания ва учинчи томоннинг, амалдаги офертанинг 3.1.6 - бандига мувофиқ реклама/ахборот/ SMS хизмат хабарларини USSD-териши ёки Компания оғисларида ёзма ариза бериш орқали рад этиш хукуқига эга. Шу билан бирга Компания томонидан юбориладиган амалдаги офертанинг 3.3.4-бандида кўрсатилган ҳоллардаги SMS-хабарларни, реклама/ахборот/ SMS хизмат хабарларини қабул қилишни чекламайди.

**3.2.5.** Абонент бошқа Мобил алоқа оператори (Реципиент) билан янги шартнома тузишда уяли радиотелефон алоқаси хизматларини кўрсатиш шартномаси асосида ажратилган абонент рақамини сақлаб қолиш ва ундан фойдаланиш, шунингдек Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига назарда тутилган бошқа хукуқларга ҳам эга.

### **3.3. Компаниянинг мажбуриятлари:**

**3.3.1.** Шартноманинг амал қилиш муддати давомида вактинчалик фойдаланиш учун Компания мулки ҳисобланган Абонент рақамини, шунингдек SIM-карта/eSIM фаоллаштириш кодини Абонентга тақдим этади. Тармоққа уланиш нархи SIM-карта/eSIM фаоллаштириш коди нархини ўз ичига олади. Абонент ва SIM-карта рақамлари рўйхатга олиш шаклида (бланкида) кўрсатилади.

**3.3.2.** Шартнома тузилиб ва Абонент томонидан бирламчи тўлов амалга оширилгандан сўнг, Шартномага асосан Абонентга 1 (бир) иш куни давомида хизматлар тақдим этиш.

**3.3.3.** Тўлов мавжуд бўлган ҳолда Абонентга, у танлаган рўйхатга мувофиқ, амалдаги Шартнома, тарификациялаш ва Компаниянинг нархларига асосланган ҳолда, хизматларни кўрсатиш.

**3.3.4.** Абонент белгиланган тартибда рақам кўчириш хизматидан фойдаланганда Абонент рақамининг (MNP) Донори ёки Реципиент бўлиш.

**3.3.5.** Кўчирилган Абонент рақамларига ўз тармоғидан уланишларни тўғри маршрутлашни таъминлаш учун зарур бўлган кўчирилган рақамларнинг локал базасини шакллантириш, унинг ишлиши ва техник кузатиш ҳамда кўчирилган Абонент рақамларини ўзининг рақамлаш ресурсига киритиш ва мазкур Қоидаларида белгиланган тартибда тузилган шартноманинг амал қилиш муддатида мобил алоқа хизматларини кўрсатиш.

**3.3.6.** Абонентга мобил алоқа тармоқларида Абонент рақамларини кўчириш шартлари тўғрисидаги ахборотни тақдим этиш.

**3.3.7.** Реципиент ва Абонент ўртасида шартнома бекор қилинган тақдирда, ЎзР қонунчилигига белгиланган муддатда кўчирилган рақамни Донорга қайтариш.

**3.3.8.** Донор, Абонент рақамини узатиш мумкинлигини КРМБ операторига тасдиқлаши, уяли радиотелефон алоқа хизматларини кўрсатиш тўғрисидаги шартномани бекор қилиш ва Абонентга барча алоқа хизматларини блоклаш Контент-провайдерлар билан биргаликда тақдим этилаётган хизматлар, жумладан, ахборот-кўнгилочар хизматлар, SMSахборот хизматлари (Uzcard, HUMO ва бошқалар) ўчирилиши учун асос бўлади. Шу билан биргаликда Донор Абонентга алоқа хизматлари блокланганлиги ҳақида хабар беради.

**3.3.9.** Абонентга Шартнома шартлари, тақдим қилинаётган хизматлар рўйхати, ҳисобкитоб ва тартибининг ўзгариши ҳақида камидаги 10 (үн) кун аввал, Компания оммавий ахборот воситаларида, ўзининг расмий веб-сайтида ёки SMS орқали хабар бериши лозим. Компанияга боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра ёки Абонент томонидан бундай хабарлар қабул

қилинмаган ҳолда, Компания Абонентнинг ўз вақтида хабардор бўлмаганлиги юзасидан жавобгар бўлмайди ва бу борада даъволарни қабул қилмайди.

**3.3.10.** Абонент билан Шартнома бекор қилинишида, Шартномада кўзда тутилган тартибда ва шартларда, ўзаро ҳисоб китобларни амалга ошириш.

**3.4.** Абонентнинг мажбуриятлари:

**3.4.1.** Шартнома шартларига амал қилиш.

**3.4.2.** Мустақил равишда Компаниянинг расмий маълумотлари билан, шу билан бирга, Компаниянинг веб сайтида тақдим қилинаётган хизматлар рўйхати, тарификация, хизматларни кўрсатиш тартиби, шартлари ва хизмат кўрсатиш доираси ўзгариши билан боғлиқ маълумотлар билан танишиш.

**3.4.3.** SIM-карта/eSIM фаоллаштириш коди йўқолганлиги ҳақида дарҳол Компаниянинг расмий оғисларидан бирига ёзма ариза билан мурожаат этиш йўли билан ёки Компания томонидан назарда тутилган бошқача усул билан хабар бериш. Абонент томонидан белгиланган қоидага амал қилинмаганда, Компания томонидан Абонентдан ёзма аризани қабул қилинмагунигача, Абонент йўқотган SIM-карта/eSIM фаоллаштириш кодидан фойдаланган ҳолда кўрсатилган Хизматлар учун тўловни амалга ошириш бўйича жавобгарликни ўз зиммасига олади.

**3.4.4.** Тақдим этилган Абонент рақам, лотереялар, викториналар ташкил этиш ва ўтказиш, реклама тарқатиш, сотилган товарлар (хизматлар, ишлар) учун пул йиғиш, ҳомийлик, моддий ёрдам кўрсатиш ва Шартнома предмети сифатида кўрсатилмаган бошқа мақсадларда, учинчи шахс ҳуқуқларининг бузилиши, шунингдек Компания алоқа ускуналари ва курилмаларининг ишлашига таъсир кўрсатувчи ҳаракатлар учун фойдаланилмаслиги лозим. Агар юқорида кўрсатилган мақсадларда Абонент рақамидан фойдаланиш аниқланган ва аниқ маълумотлар билан тасдиқланган бўлса, ёки юқоридаги ҳаракатларнинг аломатлари мавжуд бўлган тақдирда Компания Ўзбекистон Республикаси амалдаги қонунлари ва янги таҳрирдаги Узбекистон Республикаси солик кодекси асосида давлат органларига хабар бериш ҳуқуқига эга.

**3.4.5.** Абонент, шахсий фойдаланиш ускуналари ҳисобланмаган, бошқа Абонентларнинг ҳуқуқларини, Шартнома шартларини ва Ўзбекистон Республикаси амалдаги қонунчилигини бузиш орқали Хизматлардан фойдаланишга мўлжалланган шлюзлар ёки бошқа маҳсус техник мосламалар/дастурлардан фойдаланиш, жумладан, учинчи шахсларга алоқа хизматларини шунингдек, ўзга алоқа операторлари, стационар алоқа, интернет/ПР-телефония хизматларини ва бошқаларни тақдим этиш тақиқланади.

**3.4.6.** Абонентлар Компания оғисларига мурожаат қилганда, талаб асосида ўз шахсини тасдиқловчи хужжатнинг асл нусхаси ёки Компания томонидан белгиланган бошқа хужжатларни тақдим этади.

**3.4.7.** Рўйхатга олиш шаклида (бланкида) кўрсатилган шахсий маълумотлар (фамилияси, исми, отасининг исми, доимий яшаш жойи бўйича ёки вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олинганлиги ва паспорт маълумотлари) ўзгарган тақдирда, бу ҳақда Компанияга ушбу ўзгаришлар содир бўлган пайтдан бошлаб 15 кун ичida хабар бериш (Компания оғисларига мурожаат қилиши ёки Компания расмий веб-сайти орқалик «**Шахсий маълумотларини янгилаш**» хизмати орқалик ўзининг шахсий маълумотларини актуализациялаши зарур).

**3.4.8.** SIM-карта/eSIM орқали олинаётган материаллар, маълумотлар, хизматлар ва маҳсулотлардан фойдаланиш билан боғлиқ барча хатарларни ўз зиммасига олиш:

- а)** интернет тармоғида;
- б)** уларга кириш Компания тармоғи орқали уланиш ёрдамида амалга ошириладиган контентпровайдерлар.

#### **4. ҲИСОБ-КИТОБЛАР ТАРТИБИ ВА ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ**

**4.1.** Хизматларга бўлган тарификация Компания томонидан мустақил равища белгиланиб, Ўзбекистон Республикасининг миллий валютаси – сўмда ўрнатилади.

**4.2.** Рўйхатга олиш бланки (шакли) томонлар тарафидан имзолангандан сўнг, абонент минимал миқдордаги тўловни (минимал тўлов Рўйхатга олиш бланки (шакли) ва компаниянинг расмий сайтида кўрсатилади) амалга ошириши зарур. Хизматлардан фойдаланиш учун эса абонент томонидан танлаган тариф/хизматларга аввалдан тўловни амалга ошириши зарур. Шахсий ҳисоб рақамининг дастлабки тўлдирилиши (минимал тўлов) қуидаги усувлардан бири орқали амалга оширилади:

- а)** компаниянинг сотув ва хизмат кўрсатиши оғисларида нақд пул тўлови орқали;
- б)** банк пластик картаси орқали;
- в)** тўлов тизимлари, агентлик тармоқлари ва бошқалар орқали;
- г)** тўлов карталарида кўрсатилган қоидаларга мувофиқ, тўлов картасини активлаштириш орқали.

**4.3.** Хизматларнинг кейинги тўлови Абонент томонидан, Шартноманинг 4.2 бандида кўрсатилган усувларда аванс тўловларни киритиш йўли билан амалга оширилади.

**4.4.** Агарда Абонент, пуллик/оддий рақамга уланганда, рақамнинг қийматини ёки тариф режани қийматини 24 (йигирма тўрт) соат давомида тўламаган бўлса, унда Шартнома бир томонлама бекор қилинган ҳисобланади.

**4.5.** PREPAID тизимидағи хизматлар олдиндан тўлов шарти асосида тақдим этилади. Тўлов амалга оширилгач, Компания Абонентга, тарификация ва хизматларни кўрсатиши шартларига мувофиқ, Абонентнинг шахсий ҳисоб рақамида маблағ тугагунга қадар бўлган тўлов қийматига teng хизматларни тақдим этади.

**4.6.** Шахсий ҳисоб рақамидағи маблағлар Компания томонидан ўрнатилган минимумгача пасайганида, Компания Веб сайтида кўрсатилган шартлар асосида, Абонентнинг хизматлардан фойдаланиш ҳуқуқи чекланади, шу жумладан, хизматдан фойдаланиш вақтида ҳам амалдаги шартларга мувофиқ чекловлар қўлланилиши мумкин. Хизматлардан фойдаланиш ва чеклашнинг бошқа шартлари ҳам компаниянинг веб-сайтида ва/ёки компаниянинг ахборот материаларида кўрсатилган.

**4.7.** Хизматлардан фойдаланиш чекланганидан сўнг – Абонент рақами блок ҳолатига ўтказилади, Абонентга белгиланган муддат давомида шахсий ҳисоб рақамини тўлдириш ва хизматлардан фойдаланишни тиклаш имконияти берилади. Белгиланган муддат, батафсил, Компания Веб сайтида кўрсатиб ўтилган.

**4.8.** Хизматлардан фойдаланган сари, Абонент ҳисобидан, хизматларга бўлган амалдаги тарификация томонидан белгиланган қийматлар ечилади. Хизматларга бўлган тарификация

Компания томонидан белгиланиб, Компаниянинг Прайс - варақаларида (лист) ва/ёки ахборот материаларида акс эттирилади.

**4.9.** Ҳисобга олиш, тарификация тизимида техник носозликлар вужудга келган ҳолларда ёки тизимда режали/режадан ташқари ишлар амалга оширилганда, Компания хизматларни кўрсатишдаги носозликлар бартараф қилингандан сўнг тарификация қилиш хуқукини ўзида колдиради.

**4.10.** Хизматлар ҳар куни 24 соат давомида, узлуксиз тақдим қилинади, зарур бўлган профилактика ва таъмирлаш ишларининг ўтказилиши бундан мустасно.

**4.11.** Компания тармоғидаги, хизматлар кўрсатилишининг тўхтатилишига олиб келган, йирик ҳалокатлар вужудга келган ҳолатларда Компания Абонентни бу ҳақида ҳамда тахминий тиклаш муддатлари ҳақида оммавий ахборот воситалари ёки Компания томонидан танланган бошқа усул билан хабардор қиласди.

**4.12.** Компания Абонентга, унинг Шахсий ҳисоб рақамида пул маблағлари мавжуд бўлмаган ҳолда ҳам, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида тегишли хизматлар учун ўрнатилган ягона рақамларни териш орқали фавқулоддаги оператив хизматларни бепул ва кечаю - кундуз чақириш имкониятини беради.

**4.13.** Компания томонидан Шартномага асосланган ҳолда кўрсатиладиган Хизматлар тўғрисидаги қўшимча маълумот Компания ва дилерлик савдо шохобчаларида, шунингдек, Компания танлови бўйича оммавий ахборот воситаларида ёки Компаниянинг Веб сайтида жойлаштирилади.

**4.14.** Уяли радиотелефон алоқа хизматларини кўрсатиш бўйича шартнома тузища абонент оператор хизматларини кўрсатиш учун операторга ўзининг шахсий ва биометрик маълумотларини қайта ишлашга (шахсий маълумотларни тўплаш, тизимлаштириш, сақлаш, ўзгартириш, тўлдириш, ишлатиш, тақдим этиш, тарқатиш, узатиш, шахсизлаштириш ва йўқ қилиш) розилик беради.

Абонент шахсий / биометрик маълумотларни уни олиш фактини тасдиқлашга имкон берадиган ҳар қандай шаклда қайта ишлашга розилик беради.

Хизматларни тақдим этиш жараёнида Абонентнинг шахсий / биометрик маълумотларининг бир қисми хизмат кўрсатишнинг узлуксизлиги ва тўғрилигини таъминлаш учун учинчи шахсларга берилиши мумкин.

Компания тармоғи орқали тақдим этиладиган қўшимча хизматларга уланиш учун рўйхатдан ўтиш шаклини имзолаш ва/ёки сўров юбориш орқали абонент Абонентнинг шахсий / биометрик маълумотларини компания томонидан қўшимча хизматлар кўрсатадиган учинчи шахсларга (контент-провайдерлар, тўлов агентлари ва бошқалар), шунингдек операторнинг ахборот тизимларини техник қўллаб-қувватлайдиган етказиб берувчиларга тақдим этишга розилик беради. Абонент қўшимча хизматлардан узиб қўйилгандан сўнг, илгари узатилган маълумотлар оператор ускунасининг техник хусусиятларидан келиб чиқсан ҳолда тегишли тизимларда сақланиши мумкин

Абонентнинг шахсий маълумотлари (трафик, тўловлар, кўрсатилган хизматлар ва сервислар, ҳаракатлар, молиявий маълумотлар ва бошқалар тўғрисидаги маълумотлар) компания томонидан фақат хизматлар кўрсатиш, шунингдек учинчи шахсларга қўшимча хизматлар кўрсатиш учун йигилади, ишлатилади ва қайта ишланади (кредит ва молиявий рейтинг учун скоринг ва бошқалар).

Оператор олинган шахсий / биометрик маълумотларнинг махфийлиги ва хавфсизлигини таъминлайди. Уларнинг хавфсизлиги ва махфийлиги компания томонидан Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ кафолатланади.

**4.15. "COSCOM" МЧЖ** абонентларининг шахсий маълумотларининг махфийлик сиёсати билан куйидаги веб-сайтда танишишиб чиқишингиз мумкин: <https://ucell.uz/uz/information/sustainability>

**4.16.** Компания мустақил равиша ва/ёки учинчи шахслар – контрагентлар ёрдамида Абонентнинг шахсий маълумотларини, Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилиги ва Компаниянинг махфийлик сиёсатига асосан, ўрнатилган тартибда хизмат кўрсатиш мақсадида, йифиши, фойдаланиш ва уларга ишлов бериш хуқуқига эга.

## **5. МУРОЖААТЛАРНИ КЎРИБ ЧИҚИШ ТАРТИБИ**

**5.1.** Абонентларнинг хизмат кўрсатиш доирасида юзага келадиган саволлари юзасидан, Абонент Компанияга тегишли ариза билан мурожаат қилиши мумкин бўлиб, унинг кўриб чиқиши амалдаги қонунчилик доирасида ва Компания томонидан ўрнатилган тартибда амалга оширилади.

**5.2.** Компания томонидан Шартномавий мажбуриятлар бажарилмагандан ёки нотўғри бажарилганда. Абонент ёзма, оғзаки ва/ёки электрон шаклда шикоят қилиш хуқуқига эга.

**5.3.** Телекоммуникация хизматларини кўрсатиши рад этиш, шартномадан келиб чиқадиган мажбуриятларни ўз вақтида бажармаслик ёки лозим даражада бажарилмаслик билан боғлиқ масалалар юзасидан шикоятлар, телекоммуникация хизматлари кўрсатилган, уни кўрсатиши рад этилган ёки ҳисоб тақдим этилган кундан бошлаб 6 ой ичida берилади.

**5.4.** Абонентларнинг мурожаатлари, агар бошқаси Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига назарда тутилмаган бўлса, мурожаатларнинг рўйхатдан ўтказилганлик санасидан бошлаб, 30 (үттиз) кундан ошмаган муддат давомида Компания томонидан кўриб чиқилади.

**5.5.** Абонент мурожаатлари кўриб чиқилиши натижалари ҳақида Компания ёзма, оғзаки ёки электрон шаклда хабар беради (Абонентнинг талабига мувофиқ). Ёзма жавоб почта орқали буюртма хат тарзида ёки электрон почта орқали, шунингдек, жўнатувчини қайд этишни таъминлайдиган бошқа алоқа воситалари орқали юборилади ёки Компаниянинг офисида Абонентга қўл кўйдириб топширилади. Оғзаки жавоб телефон/мобил алоқа орқали тақдим этилади.

## **6. ФОРС МАЖОР**

**6.1.** Томонлар Шартнома бўйича ўз мажбуриятларининг бажарилмаганилиги ёки лозим даражада бажарилмаганилиги билан боғлиқ жавобгарлиқдан, агарда бундай ҳаракатсизлик Шартнома тузилгандан кейин, енгилмас куч вазиятларининг натижасида юзага келган бўлса. Томонлар мавжуд бўлган воситалар ёрдамида уларнинг олдини ола олмаган фавқулоддаги вазиятлар ҳисобланади. Бунда «фавқулодда ҳодисалар ёки вазиятлар»га қўйидагилар киради: ёнғинлар, учинчи шахсларнинг ҳаракатлари, табиат оғатлари (сув тошқинлари, зилзилалар, ва бошқалар), ҳарбий ҳаракатлар, Ўзбекистон Республикаси ваколатли бошқарув органларининг

ҳаракатлари ёки меъёрий актлари, шунингдек, Томонларнинг идрокли назорати чегараларидан ташқарига чиқадиган ҳар қайси бошқа вазиятлар.

## **7. ШАРТНОМАНИНГ АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ. ШАРТНОМАНИ ТУЗИШ, ЎЗГАРТИРИШ ВА БЕКОР ҚИЛИШ ТАРТИБИ**

**7.1.** Шартнома Томонларнинг Рўйхатга олиш бланкини имзолаган пайтдан бошлаб кучга киради ва Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва/ёки Шартноманинг шартларига асосланган ҳолда бекор қилингунича амал қиласди.

**7.2.** Шартнома Абонент ва Компания ўртасида Компания оғисларида, Компания дилерлари савдо нуқталарида ва мобил илова орқали, юз қисмининг фото/видео тасвирини (Face ID) олиш ёки Рўйхатга олиш шаклини имзолаш орқали тузилади.

**7.3.** Томонлар Рўйхатга олиш шаклига (бланкига) имзо қўйишда Компаниянинг ваколатли шахси имзоси факсимили тарзида қўйилишига келишадилар.

**7.4.** Компания, Оммавий Офертани ўзгартирилган таҳрирда веб сайтда жойлаштириш ёки оммавий ахборот воситаларининг бошқа воситаларида нашр қилиш йўли билан, ўзгартиришларнинг кучга кириш санасигача 10 (үн) кундан кеч бўлмаган муддат ичиди, Оммавий Офертага бир томонлама равишда ўзгартиришлар ва/ёки қўшимчаларни киритиш хукуқига эга. Бундай ўзгартиришлар ва қўшимчалар уларни киритиш пайтidan бошлаб амал қиласди. Абонент, ўзгартиришлар ва қўшимчалардан норози бўлган ҳолда, Шартноманинг шартларидан бош тортиш хукуқига эга, бунда у Компанияга бундай ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритилган пайтдан бошлаб 30 (үттиз) кун давомида ёзма аризани тақдим этиши мумкин. Абонентнинг норозилиги, бундай ҳолда, Абонентнинг ташаббусига биноан ва 7.6 бандга асосланган ҳолда, Шартноманинг бир томонлама бекор қилинишига олиб келади.

**7.5.** Томонлар Шартномани унинг шартлари бажарилмаган ҳолда, Шартномада кўзда тутилган тартиб ва шартларда бекор қилишлари мумкин.

**7.6.** Шартнома Абонентнинг ташаббусига биноан бир томонлама тартибда, Абонентнинг ёзма равишдаги, Компания оғисларига тақдим қилинган аризаси асосида ва Абонентнинг шахсини тасдиқловчи хужжатнинг аслини тақдим қилган ҳолда бекор қилиниши мумкин. Бунда Абонент, Шартнома бекор қилинишидан олдин, бекор қилиниш санасида кўрсатилган хизматлар қийматини тўлиқ тўлаши шарт.

**7.7.** Шартнома Компания томонидан бир томонлама тартибда куйидаги ҳолатларда бекор қилиши мумкин:

**7.7.1.** Амалдаги Компаниянинг бошқа маълумот манбаларида, шу жумладан, расмий Веб сайтида кўрсатилган муддат тугаганидан сўнг абонент томонидан шахсий ҳисоб тўлдирилмаса, шунингдек, Компаниянинг расмий Веб - сайтида кўрсатилган муддатдан ортиқ вақт давомида абонент блокланган ҳолатда бўлган тақдирда.

**7.7.2.** Агарда, Абонент Компания оғисига Оммавий Офертанинг 3.1.3 - бандида белгиланган муддатда мурожаат қилмаган бўлса.

**7.8.** Шартноманинг бекор қилинишида Томонлар ўзларининг барча мажбуриятлари бўйича ўзаро ҳисоб китобларни амалга оширишлари керак. Абонентнинг Шахсий ҳисоб рақамида қолган пул маблағларининг қайтарилиши қуйидаги тартибда амалга оширилади:

**7.8.1.** Абонент Шахсий ҳисоб рақамида Шартноманинг бекор қилиниши пайтида қолган пул маблағларини Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги томонидан белгиланган муддат

давомида талаб қилиш ҳуқуқига эга. Агарда Абонент Компанияга кўрсатилган муддатнинг якунланишига қадар мурожаат қилмаган бўлса, пул маблағлари қайтарилимайди.

**7.8.2.** Промо-баланслардан (бонус устамалари) маблағлар, SIM-картани улаш (активлаштириш) учун тўлов, пуллик Абонентлик рақамининг қиймати, шунингдек, Абонент томонидан харид қилинган, лекин активлантирилмаган тўлов Карталарининг қиймати қайтарилимайди.

**7.8.3.** Маблағ қолдигини қайтариш, Оммавий Офертанинг абонентнинг ёзма аризаси асосида, Компания офисларида рўйхатдан ўтказилган кундан бошлаб 15 иш/банк куни ичидаги амалга оширилади. Шартнома бекор қилинган ҳолларда абонент аванс сифатида киритилган пул маблағларини қайтариш учун Компанияга мурожаат қилиш ҳуқуқига эга. Бундай ҳолда Компания ўн беш кун муддат ичидаги пул маблағларининг фойдаланилмаган қолдигини қайтаришга мажбур. Шу билан бирга, пул маблағлари компания томонидан фақат нақд пулсиз шаклда банк ҳисоб варагига ёки абонентга тегишли банк пластик картасига ёки Шартнома бекор бўлмасидан ва рақам ўчирилмасидан аввал, мазкур абонентга тегишли бошқа рақамнинг Шахсий ҳисобига ўтказиш йўли билан қайтарилади.

**7.8.4.** Абонент рақамини Компания тармоғидан Реципиентнинг тармоғига кўчиришда абонентнинг шахсий ҳисоб варагида сарфланмаган маблағлар аниқланса, ушбу маблағларни қайтариш Компания томонидан Абонентнинг маблағни қайтариш тўғрисидаги ёзма аризаси рўйхатга олинган вақтдан бошлаб, Компания офисларида 30 иш/банк куни ичидаги амалга оширилади. Бунда, Компания пул маблағларини фақат нақд пулсиз шаклда, банк ҳисоб рақамига ёки Абонентга тегишли банк пластик картасига ўтказиш ёки абонент рақами Компания тармоғидан Реципиентнинг тармоғига кўчирилгунга қадар, Компания билан тузилган шартнома бекор қилинишидан аввал ушбу Абонентга тегишли бошқа Ucell рақамининг шахсий ҳисобига ўтказиш йўли билан амалага оширилади.

**7.8.5.** Пул маблағларининг қайтарилиши Ўзбекистон Республикаси миллий валютаси сўмда, пул маблағларини қайтариш Тартиби ва амалдаги Ўзбекистон Республикаси конунчилигига мувофиқ тарзда амалга оширилади.

## 8. ТОМОНЛАРНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ

**8.1.** Ўз мажбуриятларнинг бажарилмаганлиги ёки тегишли тарзда бажарилмаганлиги учун томонлар, Ўзбекистон Республикаси конунчилиги ва Шартномада назарда тутилган ҳолларда жавобгар бўладилар.

**8.2.** Айборд томон фақат бошқа томонга келтирилган тўғридан-тўғри заарлар учун жавобгар саналади. Бевосита заарлар, маънавий зарар, шунингдек, бой берилган даромад ўрни қайта қоплатилмайди.

**8.3.** Компания қуйидагилар учун жавобгар саналмайди:

**8.3.1.** Абонент томонидан Абонентлик ускунасидан нотўғри фойдаланганлик ҳолатларида хизмат кўрсатишнинг имконини бўлмаса, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси мувофиқлик гувоҳномасига эга бўлмаган ва/ёки Ўзбекистон Республикасининг белгиланган стандарт талабларига жавоб бермаган Абонентлик ускунасидан фойдаланиш ҳолларида.

**8.3.2.** Абонентнинг буюртмасига асосланган ҳолда Компания тармоғи орқали учинчи шахслар томонидан тарқатиладиган контентнинг мазмуни ва сифати, тақдим қилинмаганлиги ёки ўз вақтида тақдим қилинмаганлиги.

**8.3.3.** Абонентнинг, тасодифий, бевосита зарари, билан боғлиқ бўлган эҳтимол заарлари ҳамда хизматлардан фойдаланишда юзага келадиган бошқа моддий йўқотишлар билан боғлиқ бўлган заарлар.

**8.3.4.** Абонентнинг сўровига биноан тақдим қилинган маълумотнинг Абонентнинг шахсий кутган натижаси ва унинг субъектив баҳоларига мос келмаслиги.

**8.4.** Абонент Компания томонидан кўрсатилган хизматларга, ҳақ тўлаш бўйича мажбуриятларга ҳамда, SIM-карта/eSIM ёрдамида амалга оширилган барча харакатлар ва ходисаларга, шунингдек, SIM-карта/eSIM фаоллаштириш кодини учинчи шахсларга берганда шахсий жавобгарликка эга бўлади. Истисно, SIM –карта/eSIM нинг йўқотилганлиги ва бу ҳақда ушбу Оммавий Офертанинг 3.4.3. бандига мувофиқ тарзда хабар берилганлиги ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 1552- моддаси ва Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 278-7- моддасига асосан ўрнатилган химоя тизимларини четлаб ўтган ҳолда телекоммуникация тармоғидан фойдаланиш ва халқаро трафикни ўtkазиш мақсадида телекоммуникация тармоғидан қонунга хилоф равища (рухсатсиз) фойдаланиш, шунингдек мазкур мақсадлар учун мўлжалланган маҳсус дастурӣ ёки аппарат воситаларини қонунга хилоф равища (рухсатсиз) тайёрлаш, саклаш ва уларнинг фаолият кўрсатиши учун шароитлар яратиш жавобгарликка тортилиши белгиланган.

**8.5.** Абонент, абонент рақами ва SIM-карта/eSIM фаоллаштириш коди компания томонидан фақатгина алоқа хизматларини кўрсатиш мақсадида тақдим этилишини тасдиқлайди. Компания телефон алоқасини қабул қилиш/узатиш ва абонент рақамининг ишлашини таъминловчи техник ижрочи ҳисобланади. Абонент банк хизматлари, шу жумладан шартнома доирасида ажратилган абонент рақамига масофавий банк хизматларини улашга оид хавфлар ва Абонентнинг кредит ташкилотларидағи ҳисоб рақамларида нақд пул ўғирланиши ёки номаълум шахслар томонидан SIM –карта/eSIMни фаоллаштириш кодини алмаштириш орқали кредитлар берилишига олиб келиши мумкинлиги хақида огохлантирилди ва тушунирилди. Абонент, абонент рақами билан технологик жиҳатдан боғлиқ бўлган банк хизматларига буюртма бериш тўғрисида қарор қабул қилганда, шу жумладан абонентга операциялар тўғрисида хабар бериш, паролни тиклаш, бошқа ташкилотларда идентификация қилиш тўғрисида қарор қабул қилганда, абонент заарнинг барча хавфини, кредит ташкилотларидағи ҳисоб варақлардан пул йўқотилиши ва уларнинг йўқолиши учун мустақил равища жавобгар бўлади ва компанияяга зарарни қоплаш, маънавий зарар ва бошқа талабларни қоплаш талабидан воз кечади. Абонент, шунингдек, абонент рақамини турли хил Интернет манбаларига, шу жумладан электрон почта, ижтимоий тармоқ сайтлари, мессенжерлар ва бошқа манбаларга кириш учун идентификатор сифатида ишлатганда компания томонидан етказилган зарар ва бошқа талабларни қоплаш талабидан воз кечади. Ҳисоблар ва хизматлар учинчи шахслар томонидан бузилиши мумкинлиги сабаб, абонентга шартнома бўйича ажратилган абонент рақами билан технологик жиҳатдан боғлиқ бўлган ҳисобларни ва бошқа хизматларни рўйхатдан ўтказиш учун шартнома бўйича ажратилган абонент рақамидан фойдаланиш хавфсиз эмаслиги хақида хабар берилади. Абонент тўлиқ жавобгарлик билан, учинчи томон хизматларига буюртма бериши, Интернетда материаллар, маълумотлар, ҳисоблар, хизматлар ва маҳсулотлардан фойдаланиш билан боғлиқ хавфларни ўз зиммасига олади, уларга технологик кириш компания томонидан тақдим этилади.

## **9. ҚОЛГАН ҚОИДАЛАР**

**9.1.** Абонентга кўрсатиладиган хизматлар, радиотўлқинлар тарқалишининг табиий шароитлари сабабли, ёмонлашиши, узилиши ёки шовқинлар билан кузатилиши мумкин.

**9.2.** Абонентга кўрсатиладиган хизматлар, конструктив хусусиятлар сабабли, Компания компетенцияси доирасидан ташқарида бўлган, бошқа мобил ва стационар алоқа тармоқларининг Операторлари телефон алоқасининг сифатига боғлиқ бўлади. Компания уали радиотелефон алоқа хизматларини, унинг техник хусусиятлари ва хизмат кўрсатиш доирасини инобатга олган ҳолда кўрсатади.

**9.3.** Компания Ўзбекистон Республикаси давлат органларининг қарорларини бажариш бўйича ишларни, шунингдек, хизматлар кўрсатилишининг сифатини вақтинча ёмонлашиши ва узилишига олиб келиши мумкин бўлган, ишлаб чиқариш зарурияти билан боғлиқ ишларни олиб бориш хукуқини ўз тасарруфида қолдиради. Абонент, агар кўрсатиладиган Хизматлар сифати ёмонлашиши ва узилишлар даври узлуксиз равищда 24 соатдан ошмаган тақдирда, Компания унинг олдида жавобгар бўлмаслигига ўз розилигини билдиради.

**9.4.** USSD сўров орқали абонент рақамидан сўралган маълумотлар маҳфий маълумот саналмайди. Компания тегишли абонент рақамидан Компаниянинг Call-centr орқали мурожаат қилган шахсларга USSD сўров орқали олиниши мумкин бўлган маълумотларни тақдим этиш хукуқига эга.

**9.5.** PREPAID тизимида Шартноманинг қайта тикланиши (Шартноманинг бекор қилинишидан кейин қайта тикланиши) амалга оширилмайди.

**9.6.** Томонлар юзага келадиган келишмовчиликларни фақат музокара йўли билан бартараф этиш учун ҳамма ҳаракатларни амалга оширадилар. Музокаралар ёрдамида келишмовчиликларни бартараф қилиш имконияти мавжуд бўлмаганида, томонлар Ўзбекистон Республикаси суд органларига Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ тарзда мурожаат қиладилар.

**9.7.** Оммавий Офертада тартибга солинмаган масалаларда томонлар телекоммуникация хизматларини кўрсатиш қоидалари ва амалдаги Ўзбекистон Республикаси қонунчилигининг бошқа норматив-хукукий актларига, шунингдек, Компаниянинг ички хужжатларига асосланадилар.

**9.8.** Ушбу Оммавий оферта бир хил хукукий кучга эга бўлган ўзбек, инглиз ва рус тилларида чоп этилди. Номутаносибликлар юзага келганда, ўзбек тилидаги матн устунликка эгадир.

## 10. КОМПАНИЯ РЕКВИЗИТЛАРИ

### «COSCOM» МЧЖ

Юридик манзил: Ўзбекистон Республикаси, индекс 100031, Тошкент ш., Яккасарой тумани, В.Вахидов кўчаси, 118 уй.

Банк реквизитлари:

Х/р 20208000000457913001 “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ операцион бошқармаси

МФО: 00440

СТИР: 201788904

ОКЕД 61200

## **“COSCOM” MChJ tarmog’i PREPAID tizimida uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko’rsatish to’g’risida Ommaviy Oferta**

«COSCOM» mas’uliyati cheklangan jamiyati (qisqartirilgan nomi «COSCOM» MChJ) “Ucell” savdo belgisi (keyingi matnlarda «Kompaniya») O’zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi tomonidan taqdim etilgan 17.12.2018 dagi AA 0006634, 17.12.2018 dagi AA 0006636, 17.12.2018 dagi AA 0006637, 17.12.2018 dagi AA 0006638 hamda 19.07.2021 dagi AA 0007183 sonli Litsenziyalari asosida, shu bilan birga «COSCOM» MChJ tarmog’i PREPAID tizimida uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko’rsatish to’g’risidagi mazkur Ommaviy Oferta (keyingi matnlarda «Ommaviy Oferta») shartlarini qabul qilgan jismoniy shaxslarga, Ro’yxatga olish shakli (keyingi o’rinlarda – “Shartnoma”) imzolash orqali uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini taqdim etadi.

### **1. ATAMA VA TA’RIFLAR**

**1.1.** Mazkur Ommaviy Oferta maqsadlarini ifodalashda quyidagi atama va ta’riflar qo’llaniladi:

**Abonent** – uyali radiotelefon aloqa xizmatlaridan foydalanish va abonentlik raqamini olish maqsadida Kompaniya bilan uyali radiotelefon aloqa xizmatini ko’rsatish shartnomasini tuzgan, muomalaga layoqatli (14 - 18 yoshgacha bo’lgan voyaga yetmaganlar telekommunikatsiya xizmatlariga ularishda ota-onalari yoki vasiylarining yozma roziliqi asosida murojaat qilishlari mumkin) bo’lgan, Kompaniya xizmatlaridan bevosita foydalanuvchi 18 yoshga to’lgan har qanday jismoniy shaxs.

**Abonent raqami** – Shartnoma amal qilish muddati davomida, abonentga operator tomonidan ajratiladigan, abonent tomonidan foydalaniladigan, Kompaniya tarmog’iga ulangan abonent qurilmasi va boshqa abonent qurilmalari bilan ularishda identifikatsiyalanadigan raqam.

**Abonent qurilmasi** – Abonent mulki bo’lgan yoki unga vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berilgan, Kompaniya tarmog’iga bog’lanadigan va u orqali uzatiladigan yoki qabul qilinadigan signallarni hosil qilish, o’zgartirish, qayta ishlash uchun mo’ljallangan texnik vosita. Abonent qurilmasi O’zbekiston Respublikasida amal qilayotgan standartlarga muvofiq, uskunaning ushbu turiga qo’yiladigan belgilangan texnik talablarga javob berishi kerak.

**Abonent to’lovi** – Abonenting ma’lum (hisob-kitob qilinadigan) vaqt davri (oy, chorak, yil va b.) uchun to’lovlarini summasi haqida olingan xizmatlar hajmiga bog’liq bo’lmagan doimiy miqdor hisoblanadigan xizmatlarga haq to’lash.

#### **Abonent shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar:**

- amaldagi turar joyi bo’yicha ro’yxatdan o’tganligi haqidagi yozuv kiritilgan yoxud alohida turar joy qayd etilgan varaqqa taqdim etilgan, JShShIR ko’rsatilgan, O’zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti (O’zbekiston Respublikasida pasport tizimi to’g’risidagi Nizomning 5-bandiga muvofiq fuqarolarga 16 yoshdan boshlab pasport beriladi);
  - chet el fuqarosi pasporti;
  - ofitser guvohnomasi, harbiy yo’llanma (bilet) + № 33 formasi (shartnoma bo’yicha xizmat o’tayotgan shaxslar va harbiylar uchun);
    - akkreditatsiyadan o’tganlikni tasdiqlovchi karta (diplomatik vakolatxonalar va topshiriq o’tayotgan xodimlar uchun);
    - fuqaroligi bo’lmagan shaxslar uchun yashash huquqini tasdiqlovchi yoki xorijga chiquvchi,

amaldagi turar joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tganligi haqida yozuv kiritilgan yoxud alohida turar joy qayd etilgan varaqqa taqdim etilgan hujjat;

- fuqaroligi bo'limgan shaxsning amaldagi turar joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tganligi haqida yozuv kiritilgan yoxud alohida turar joy qayd etilgan varaqqa taqdim etilgan guvohnomasi;
- yangi namunadagi milliy haydovchilik guvohnomasi;
- ID-karta - O'zbekiston Respublikasi shaxs guvoxnomasi (O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga ID karta to'g'risidagi Nizomga muvofiq ID-karta 1 yoshdan 16 yoshgacha (ota-onalar, vasiylar (homiylar) ixtiyoriga ko'ra taqdim etiladi).

Yuqorida ko'rsatilgan barcha hujjatlar bir birining o'rmini bosishi mumkin.

**Diler** – Kompaniya nomidan abonentlarga xizmat ko'rsatishda, Kompaniya bilan shartnomalar tuzgan yuridik shaxs. Diler bir yoki bir nechta uyali aloqa operatorlari manfaatlarini ifodalashi mumkin.

**Dilerlik xizmat ko'rsatish punkti** - diler tomonidan abonentlarga xizmat ko'rsatish uchun tashkil etiladigan va foydalaniladigan xizmat ko'rsatish punkti.

**JShShIR** – (O'zbekiston Respublikasi jismoniy shaxsini shaxsiy identifikatsiya raqami) aniqlash tartibiga muvofiq jismoniy shaxsning pasporti bo'yicha aniqlash mumkin bo'lgan va 14 raqamdan iborat shaxsiy identifikatsiya raqami.

**Yirik avariya** – ma'lum bir administrativ hududda uyali radiotelefon aloqa xizmatlari ko'rsatilishi to'xtalishiga olib keladigan avariya holati.

**Kompaniya veb-sayti** – Internet tarmog'ida elektron manzili: [www.ucell.uz](http://www.ucell.uz) bo'lgan Kompaniyaning axborot resursi.

**Kompaniya ofisi** — Abonentlar axborot-ma'lumot xizmatlarini olishlari, mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomalarini tuzishlari va xizmatlarini boshqa turlarini olishlari mumkin bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi, Kompaniyaning har qanday rasmiy ofisi.

**Kompaniya tarmog'i** – Abonentga uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ovoz, ma'lumot, rasm, video va boshqa shakldagi signallarni uzatish va qabul qilishni ta'minlovchi texnik vositalar majmuyi.

**Kompaniya xizmatlari** — Ucell savdo belgisi ostida taqdim qilinadigan uyali radiotelefon aloqa xizmatlari, mobil Internet tarmog'idan foydalanish, shuningdek Kompaniya tarmog'i orqali olinadigan, uzatiladigan, qayta ishlanadigan axborotning boshqa turlarini taqdim etish faoliyati mahsuli.

**Kontent** – Abonent so'rovi asosida, axborot, ko'ngilochar yoki boshqa mazmunga ega bo'lgan, SMS, GPRS orqali olingan matnli yoki multimedia ma'lumotlari.

**Kontent-provayder** – tijoriy faoliyat asosida, Kompaniya tarmog'i orqali Abonentlarga Kontent xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Kontent-provayderlar va ular ko'rsatadigan Kontent xizmatlari ro'yxati Kompaniya Veb-sayti hamda Kontent-provayderlarning veb-saytlarida mavjud.

**Konferents-aloqa** – Uchta va undan ortiq abonentga bir vaqtida telefon orqali muloqot qilish, suhbat paytida abonentlarning har biri bilan navbatma-navbat ularish yoki qolgan ishtirokchilarning suhbatdagi aloqasini uzmay, birgalikdagi suhbatda o'z ishtirokini to'xtatish imkonini beruvchi xizmat.

**Ko'chirilgan raqamlar markazlashtirilgan bazasi (bundan buyon matnda KRMB deb yuritiladi)** - mobil aloqa tarmoqlarida ko'chirilgan abonent raqamlari to'g'risidagi axborotni, shu jumladan, ushbu nizomda belgilanadigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasini boshqaruvchi apparat-dasturiy kompleks.

**MChJ «COSCOM» Kompaniyasi** – O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda ro’yxatdan o’tkazilgan va faoliyat yuritayotgan, mobil aloqa tarmog’iga ega bo’lgan, uning qurilishi, ishlashini, rivojlanishini ta’minlaydigan va uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini taqdim etadigan korxona.

**Operator Donor** - telekommunikatsiyalar tarmog’idan abonent raqami ko’chiriladigan mobil aloqa operatori.

**Operator Retsipient** - tarmog’iga abonent raqami ko’chiriladigan mobil aloqa operatori.

**Prays varaqalar** – Kompaniyaning asosiy xizmatlari ro’yxatini o’z ichiga olgan, ularning shartlari va/yoki qisqa tavsiflari va joriy davr uchun qiymati ko’rsatilgan axboriy-ma’lumot beruvchi hujjat.

**Rouming** – abonent bir mamlakatda yoki boshqa mamlakatning uyali aloqa operatori xizmat ko’rsatish zonasida bo’lganida, bir uyali aloqa operatoriga boshqa mobil aloqa operatorlari tarmog’idan foydalanish imkonini beruvchi xizmat.

**Ro’yxatga olish shakli** – Sharhnomaning ajralmas qismi sanalgan, abonentlik raqami, Abonent tomonidan avvalroq tanlangan tarif rejasi ko’rsatilgan, abonent haqidagi ma’lumotlarni o’z ichiga olgan va ushbu shakl imzolanishi orqali Ommaviy Ofertaning barcha shartlari to’liq va so’zsiz qabul qilinishini tasdiqlovchi, Kompaniya tomonidan belgilangan namunadagi shakl.

**Tarifikatsiyalash** – (qat’iy baho belgilash) birligi – Kompaniya xizmatlarining tegishli turi uchun to’lov olinadigan vaqt, miqdor yoki ma’lumot hajmining o’lchov birligi.

**Tarif rejasi** – Kompaniya tomonidan abonentlarga yoki abonentlarning ma’lum guruhiba yoki ma’lum bir cheklangan hududda bir yoki bir nechta xizmatlardan foydalanishni taqdim etadigan, narxlar va texnik ma’lumotlar majmuyi.

**Tarifikatsiya** (qat’iy baho belgilash) birligi – ko’rsatiladigan xizmatlarga, Kompaniya tomonidan belgilangan tarifikatsiya tizimiga bog’liq bo’lgan to’lov birligi.

**To’lov kartasi** – plastik karta shaklida yoki kompaniya tomonidan belgilanadigan boshqa shaklda, maxfiy kod, himoya qatlami bo’lgan, unda ko’rsatilgan miqdor/nominal qiymati bilan abonentga, abonentning shaxsiy hisobini aktivlashtirish imkoniyatini beruvchi to’lov vositasi.

**Uyali radiotelefon aloqa operatori** — Mulk huquqi yoki boshqa mulkiy huquqlar asosida telekommunikatsiya tarmog’iga ega bo’lgan, uning qurilishi, faoliyat yuritishi, rivojlanishini ta’minlovchi va litsenziya asosida tegishli telekommunikatsiya xizmatlarini ko’rsatuvchi yuridik shaxs.

**Frod** – axborot texnologiyalari sohasida firibgarlikning turi, xususan, ruxsat berilmagan harakatlar va aloqa tarmog’ida xizmatlar va resurslardan noqonuniy foydalanish.

**Shlyuz** – Mobil aloqa tarmoqlari va telekommunikatsiyalarning boshqa tarmoqlari o’rtasida, xalqaro trafikni o’tkazish va foydalanish maqsadida, o’rnatilgan xavfsizlik tizimlarini chetlab o’tgan holda, telekommunikatsiya tarmog’iga server yoki boshqa uskuna orqali, noqonuniy (ruxsatsiz) ulanuvchi, Kompaniya tarmog’i va boshqa aloqa tarmoqlari o’rtasida ovozli va/yoki ovozsiz axborot o’tkazilishini amalga oshirish imkonini beruvchi (jumladan mobil aloqa, ko’chmas (stasionar) aloqa, ma’lumotlar uzatish va boshqalar orqali) va/yoki uchinchi shaxsga Kompaniya tarmog’idan foydalanish imkonini beruvchi GSM, SMS, IP apparat dasturiy vosita.

**Xizmat ko’rsatish zonasi** – Kompaniya, litsenziya sharhnomasi asosida uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko’rsatish huquqiga va normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan shartlarga muvofiq xizmatlar sifatini ta’minlash uchun texnik imkoniyatlarga ega bo’lgan hudud.

**Hisob raqam** – Abonent bilan tuzilgan ushbu Sharhnomaga muvofiq, ko’rsatilgan xizmatlar hajmi, pul mablag’larining tushimi va sarfini hisoblashda, Kompaniya billing tizimidagi analitik hisob registri (ro’yxati).

**eSIM** - abonent kurilmasining virtual identifikatsiya moduli, uning yordamida abonent kurilmasini identifikatsiya kilish, uning mobil aloqa tarmogidan foydalana olishi, shuningdek, abonent rakamidan ruxsatsiz foydalanishdan ximoya kilish ta’minlanadi.

**GPRS** - General Packet Radio Service. GSM tarmoqlarida qo’llaniladigan internet-protokol bo’yicha ma’lumotlarni o’tkazish texnologiyasi. GPRS ma’lumotlarni paket rejimida o’tkazib, xizmat uchun to’lov GPRS -sessiyaning davomiyligiga bog’liq bo’lmagan holda, yuborilgan va olingan ma’lumotlarning hajmiga proporsional ravishda undiriladi.

**IMEI kodi (International mobile Equipment Idenfiter)** yoki xalqaro o’ziga xos identifikatsiya kodi- 15 raqamdan iborat bo’lgan va GSMA tomonidan ajratiladigan, shuningdek, tarmoqda GSM/UMTS/LTE standartlarida ishlovchi mobil aloqa abonent qurilmasini identifikatsiyalovchi raqam.

**MNP (Mobil Number Portability) abonent raqamining ko’chib o’tishi** - mobil aloqa xizmatlarini ko’rsatish sharhnomasi asosida donor tomonidan abonentga ajratilgan abonent raqamini boshqa mobil aloqa operatori (retsipient) bilan yangi sharhnomada tuzishda saqlash va undan foydalanish uchun amalga oshiriladigan tashkiliy-texnik tadbirlar majmui.

**PIN** - Personal Identification Number. Uyali aloqa tarmog’i abonentini identifikatsiyalash uchun qo’llaniladigan kod. Odatda to’rt raqamdan iborat bo’ladi. SIM-kartaga bog’langan, lekin abonentning xohishiga binoan telefon menyusi yordamida o’zgartirilishi mumkin. Agarda abonent o’z telefonidagi tegishli funksiyani mustaqil ravishda o’chirmagan bo’lsa, telefon yoqilganda PIN so’raladi.

**PUK** - Personal Unblocking Code. SIM-kartaga bog’langan, Kompaniya bilan sharhnomada tuzganda beriladigan, SIM-karta bloklangan holda, uni ochish uchun qo’llaniladigan kod. Masalan, PIN kodni bir nechta marotaba noto’g’ri kiritish natijasida ham PUK kod so’raladi.

**SIM-karta** – Ichiga mikrosxema o’rnatalgan, olinuvchi identifikatsiya moduli, uning yordamida abonent qurilmasini identifikatsiya qilish, uning mobil aloqa tarmog’idan foydalana olish, shuningdek, abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish ta’minlanadi.

**SMS qisqa matnli xabar** - Short Message Service, — Qisqa xabarlar markazi orqali aloqa abonentlariga qisqa matnli xabarlarni uzatish va qabul qilish uchun mo’ljallangan xizmat.

**Face ID** - odamning yuz shakli hajmini skanerlash. Tizim quyidagi maqsadlarda qo’llaniladi:

- Foydalanuvchilarning shaxsini tasdiqlash (autentifikatsiya);
- Shaxsning haqiqiyligini tasdiqlash (verifikatsiya qilish).

Sharhnomalarni tuzishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda, qonunda yoki tomonlarning kelishuvida hujjatni o’z qo’li bilan imzolash talab qilingan hollarda, agar sharhnomada tarifi tasdiqlash tartib-taomilini elektron raqamli imzo orqali imzolagan bo’lsa, elektron hujjat imzolangan hisoblanadi. Face-ID imzo va elektron tasdiq sifatida tan olinadi, bu rozilikni bildiradi va hujjat imzolagan shaxsni identifikatsiyalash va autentifikatsiya qilish imkonini beradi.

## 2. OMMAVIY OFERTA PREDMETI.

**2.1.** Kompaniya, tanlangan Tarif rejasi va aloqa Xizmatlarini ko'rsatish shartlariga muvofiq tarzda Abonentga uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish javobgarligini o'z zimmasiga oladi. Abonent esa, mazkur Ommaviy Ofertada ko'rsatilgan, shartlar va tartiblar asosida to'lovni o'z zimmasiga oladi.

**2.2.** Ushbu Ommaviy Oferta barcha Abonentlarga nisbatan bir xil kuchga ega bo'lib, Abonent bilan avvalroq tuzilgan MChJ «COSCOM» tarmog'ida uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini PREPAID tizimida taqdim etish uchun Shartnoma o'rnini egallaydi. Abonentlarga aloqa Xizmatlarini ko'rsatish, mazkur Ommaviy Oferta, Kompaniya veb-saytida taqdim qilingan vaqtidan boshlab, Oferta shartlariga muvofiq tarzda belgilanadi. Bunda, imzolash/qayta imzolash uchun Ro'yxatga olish shakli shart emas. Ommaviy Oferta shartlariga nisbatan norozilik paydo bo'lsa, Abonent Ommaviy oferta taqdim qilingan kundan boshlab, 30 kun davomida Kompaniya veb-sayti orqali, yozma ravishda Ommaviy Oferta shartlarini qabul qilishdan bosh tortishi to'g'risida xabar berishi lozim. Ushbu Ommaviy oferta shartlarini bajarishdan bosh tortish to'g'risidagi Abonent Arizasi belgilangan muddatda Kompaniyaga taqdim etilmasligi konklyudent xatti-harakat (Aloqa xizmatlaridan amalda foydalanish) deb qabul qilinadi va ushbu ommaviy oferta shartlarini Abonent tomonidan to'liq hamda so'zsiz qabul qilinishini anglatadi.

**2.3.** Abonent ushbu ommaviy oferta shartlarini so'zsiz va to'liq qabul qilganda, kompaniya abonentga Ro'yxatdan o'tish blankida (shakl) ko'rsatilgan abonent raqamini foydalanish uchun taqdim etadi.

**2.4. Birlamchi xizmatlar ro'yxati:**

- Voice\*
- SMS\*
- GPRS\*
- Chaqirayotgan abonent raqamini aniqlash
- Chaqiriqni boshqa raqamga yo'naltirish
- Konferents-aloqa
- Qo'ng'iroqlarni taqiqlash
- Chaqiriqni kutish /ushlab turish
- Ucell Roaming
- Menga qo'ng'iroq qil

\*kompaniya uskunalari darajasida deaktivatsiya qilinmaydigan asosiy xizmatlar Abonent, o'z xohishiga ko'ra, USSD yo'li bilan yoxud Kompaniya ofislariga murojaat qilgan holda yoki Kompaniya tomonidan taklif qilingan boshqa usul bilan Kompaniya tomonidan taqdim etiladigan boshqa xizmatlarga ulanishi va aksincha o'chirishi mumkin.

### **3. TOMONLARNING XUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI**

**3.1. Kompaniya quyidagi huquqlarga ega:**

**3.1.1.** Bir tomonlama tartibda Ommaviy Ofertani, Ro'yxatga olish shaklni (blankini), uyali radiotelefon aloqa xizmatlari va tarifikatsiyalarni taqdim qilish tartib va shartlarini o'zgartirish.

**3.1.2.** Abonent tomonidan Shartnoma shartlari bajarilmaganda, xizmatlar taqdim qilishni cheklash yoki to'xtatib qo'yish, shu bilan birga:

**3.1.2.1.** Abonent tomonidan Kompaniyaning Xizmatlaridan foydalangan holda Kompaniyaga, shuningdek, boshqa abonentlar va/yoki uchinchi shaxslarga zarar yetkazilganda, shu bilan birga quyidagilar bilan cheklanmasdan: mavjud bo'limgan to'lov kartalarini bir necha marotaba faollashtirishga urinishda, Kompaniya bilan yozma ravishda kelishuvisz abonentlik raqamidan lotereya, ovoz berish, tanlovlari, reklama, so'rovnomalar, spam, firibgarlik, operator bilan oldindan kelishmasdan ommaviy SMS jo'natmalar, shuningdek boshqa noqonuniy foydalanish, ommaviy axborot tarqatishda va Kompaniyaning uskunalari hamda aloqa moslamalarining ish faoliyatini buzilishiga olib keluvchi boshqa tadbirlarda foydalanilganda.

**3.1.2.2.** Vakolatli organlarning, boshqa operatorlarning xabarlariga asosan va/yoki Kompaniya mustaqil ravishda Abonent tomonidan xalqaro trafikning noqonuniy o'tkazilishi xamda GSM, IP yoki SMS shlyuzlardan yashirin foydalanishga qarshi choralarini ko'rish, shu jumladan, tarmoqda maxsus apparat — dasturiy vositalarni o'rnatish yo'li bilan tarmoqdan foydalanilganlik holatlari aniqlanganda.

**3.1.2.3.** Abonentning Shaxsiy hisob raqamida Xizmatlardan foydalanish uchun yetarli pul mablag'lari bo'limgan holatlarda.

**3.1.2.4.** Agar abonent tomonidan tanlangan xizmatlarning ta'riflanishiga muvofiq, Kompaniya belgilagan muddat ichida, abonent pullik harakatlar (abonentning shaxsiy hisob raqamidan pul mablag'larini yechib olishga sabab bo'la oladigan, abonent qurilmasi yoki tizim orqali barcha harakatlar) amalga oshirmagan bo'lsa.

**3.1.2.5.** O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlarda.

**3.1.3.** Xizmatlar ko'rsatilishini chiqish qo'ng'iroqlari (favquloddagi va ma'lumot olishdan tashqari), kirish qo'ng'iroqlarini, SMS, GPRS va Abonentning boshqa pullik, bepul xizmatlarini bloklash yo'li bilan qisman yoki butunlay to'xtatish huquqiga ega:

- abonentning shaxsiy ma'lumotlarining uning shaxsini tasdiqlovchi aktual hujjatga to'g'ri kelmasligi;
- kompaniyada Abonentning shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxalari va/yoki Abonentlik raqami ulanishida imzolanadigan hujjatlarning asl nusxalari mavjud emasligi;
- Kompaniyaning ichki hujjatlari bilan nazarda tutilgan boshqa vaziyatlarda.

Abonentning bloklangan holatga o'tkazilishida, Abonentga tegishli SMS -xabar yuboriladi. Bunda, Abonent tegishli SMS -xabar olgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni davomida o'z shaxsiy ma'lumotlarini yangilash uchun Kompaniya ofislariga murojaat qilishi yoki Kompaniya rasmiy vefsaytida «Shaxsiy ma'lumotlarini yangilash» xizmati orqalik o'zining shaxsiy ma'lumotlarini aktualatsiyalashi zarur. SMS -xabar faqatgina ma'lumot yetkazish xususiyatiga ega va uning mavjud emasligi/qabul qilinmasligi Abonentni ushbu Ommaviy Ofertaning **3.4.7** bandida ko'rsatilgan shartlarni bajarishdan ozod etmaydi. Kompaniya Abonent oldida yuqorida aytib o'tilgan SMS -xabarni olmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

**3.1.4.** Kompaniya shartnoma tuzilgan kundan boshlab 31 kun ichida chiquvchi (favqulodda vaziyatlar va ma'lumotlar olish bundan mustasno) qo'ng'iroqlar, SMS, GPRS va/yoki boshqa pullik/rouming xizmatlari amalga oshirmagan, shaxsiy hisob raqamini to'ldirmagan taqdirda, shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqlidir.

**3.1.5.** Zaruriyat tug'ilganida, Abonent raqamini o'zgartirishdan kamida 10 (o'n) kun oldin Abonentga oldindan xabar bergen holda, Abonentlik raqamini o'zgartirish.

**3.1.6.** Kompaniya, Kompaniya va uchinchi tomonning reklama/axborot/SMS hizmat xabarlarini yuborish xuquqiga ega.

**3.1.7.** Kompaniya o‘z xizmatlarini hamda hamkorlari bilan birlashtirishiga qo‘shuvchi xizmatlarni targ‘ib qilish maqsadida turli marketing kampaniyalari, aksiyalar, dasturlar, sovrinli o‘yinlar va shunga o‘xshash tadbirlarni o‘tkazish huquqiga ega. Ular bo‘yicha batafsil shartlar / qoidalar / oferta Kompaniya ofislarida, Kompaniyaning Dilerlari savdo nuqtalarida, shuningdek, Kompaniya tanloviga ko‘ra, ommaviy axborot vositalarida yoki Kompaniyaning veb-saytida yoki mobil ilovasida joylashtiriladi.

**3.1.8.** Kompaniya quyidagi hollarda abonentga abonent raqamini boshqa uyali aloqa operatori tarmog‘iga o‘tkazishni rad etishga haqlidir:

- tariflar va (yoki) xizmatlar bo‘yicha qarzdorlik bo‘lsa;
- abonentning shaxsiy ma’lumotlari Abonentning amaldagi shaxsini tasdiqllovchi hujjatga mos kelmasa;
- bloklangan holatda bo‘lsa.

**3.1.9.** Kompaniya O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tarzda boshqa huquqlarga ega bo‘lishi mumkin.

**3.2.** Abonent quyidagi huquqlarga ega:

**3.2.1.** Amaldagi Prays-varaqlarda va/yoki kompaniyaning axborot materiallarida ko‘rsatilgan tartib-qoidalarga muvofiq foydalaniladigan xizmatlar ro‘yxatini o‘zgartirish.

**3.2.2.** Kompaniyaga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tarzda Shartnomaning bajarilishi ustidan shikoyatlar yuborish.

**3.2.3.** Kompaniya oldida qarzdorligi mavjud bo‘lmagan holda, Kompaniya tomonidan o‘rnatilgan tartibda Shartnomani boshqa shaxsga rasmiylashtirish.

**3.2.4.** Kompaniya va uchinchi tomonning, amaldagi ofertaning 3.1.6 - bandiga muvofiq reklama/axborot/ SMS hizmat xabarlarini USSD-terish yoki Kompaniya ofislarida yozma ariza berish orqali rad etish xuquqiga ega. Shu bilan birga Kompaniya tomonidan yuboriladigan amaldagi ofertaning 3.3.4-bandida ko‘rsatilgan hollardagi SMS-xabarlarni, reklama/axborot/ SMS hizmat xabarlarini qabul qilishni cheklmaydi.

**3.2.5.** Abonent boshqa Mobil aloqa operatori (Retsipient) bilan yangi shartnoma tuzishda uyali radiotelefon aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasi asosida ajratilgan abonent raqamini saqlab qolish va undan foydalanish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega.

**3.3.** Kompaniyaning majburiyatları:

**3.3.1.** Shartnomaning amal qilish muddati davomida vaqtinchalik foydalanish uchun Kompaniya mulki hisoblangan Abonent raqamini, shuningdek SIM-karta/eSIM faollashtirish kodini Abonentga taqdim etadi. Tarmoqqa ularish narxi SIM-karta/eSIM faollashtirish kodini narxini o‘z ichiga oladi. Abonent va SIM-karta raqamlari ro‘yxatga olish shaklida (blankida) ko‘rsatiladi.

**3.3.2.** Shartnoma tuzilib va Abonent tomonidan birlamchi to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng, Shartnomaga asosan Abonentga 1 (bir) ish kuni davomida xizmatlar taqdim etish.

**3.3.3.** To‘lov mavjud bo‘lgan holda Abonentga, u tanlagan ro‘yxatga muvofiq, amaldagi Shartnoma, tarifikatsiyalash va Kompaniyaning narxlariga asoslangan holda, xizmatlarni ko‘rsatish.

**3.3.4.** Abonent belgilangan tartibda raqam ko‘chirish xizmatidan foydalanganda abonent raqamining (MNP) Donori yoki Retsipient bo‘lish.

**3.3.5.** Ko'chirilgan abonent raqamlariga o'z tarmog'idan ulanishlarni to'g'ri marshrutlashni ta'minlash uchun zarur bo'lgan ko'chirilgan raqamlarning lokal bazasini shakllantirish, uning ishlashi va texnik kuzatish hamda ko'chirilgan abonent raqamlarini o'zining raqamlash resursiga kiritish va mazkur Qoidalarida belgilangan tartibda tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatida mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish.

**3.3.6.** Abonentga mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamlarini ko'chirish shartlari to'g'risidagi axborotni taqdim etish.

**3.3.7.** Retsipient va Abonent o'rtasida shartnoma bekor qilingan taqdirda, O'zR qonunchiligidagi belgilangan muddatda ko'chirilgan raqamni Donorga qaytarish.

**3.3.8.** Donor, Abonent raqamini uzatish mumkinligini KRMB operatoriga tasdiqalashi, uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani bekor qilish va abonentga barcha aloqa xizmatlarini bloklash Kontent-provayderlar bilan birgalikda taqdim etilayotgan xizmatlar, jumladan, axborot-ko'ngiliochar xizmatlar, SMS-axborot xizmatlari (Uzcard, HUMO va boshqalar) o'chirilishi uchun asos bo'ladi. Shu bilan birgalikda Donor abonentga aloqa xizmatlari bloklanganligi haqida xabar beradi.

**3.3.9.** Abonentga Shartnoma shartlari, taqdim qilinayotgan xizmatlar ro'yxati, hisob-kitob va tartibning o'zgarishi haqida kamida 10 (o'n) kun avval, Kompaniya ommaviy axborot vositalarida, o'zining rasmiy veb-saytida yoki SMS orqali xabar berishi lozim. Kompaniyaga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra yoki Abonent tomonidan bunday xabarlar qabul qilinmagan holda, Kompaniya Abonentning o'z vaqtida xabardor bo'limganligi yuzasidan javobgar bo'lmaydi va bu borada da'volarni qabul qilmaydi.

**3.3.10.** Abonent bilan Shartnoma bekor qilinishida, Shartnomada ko'zda tutilgan tartibda va shartlarda, o'zaro hisob kitoblarni amalga oshirish.

#### **3.4.** Abonentning majburiyatlari:

**3.4.1.** Shartnoma shartlariga amal qilish.

**3.4.2.** Mustaqil ravishda Kompaniyaning rasmiy ma'lumotlari bilan, shu bilan birga, Kompaniyaning veb saytida taqdim qilinayotgan xizmatlar ro'yxati, tarifikatsiya, xizmatlarni ko'rsatish tartibi, shartlari va xizmat ko'rsatish doirasi o'zgarishi bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishish.

**3.4.3.** SIM-karta/eSIM faollashtirish kodi yo'qolganligi haqida darhol Kompaniyaning rasmiy ofislaridan biriga yozma ariza bilan murojaat etish yo'li bilan yoki Kompaniya tomonidan nazarda tutilgan boshqacha usul bilan xabar berish. Abonent tomonidan belgilangan qoidaga amal qilinmaganda, Kompaniya tomonidan Abonentdan yozma arizani qabul qilinmagunigacha, Abonent yo'qotgan SIM-karta/eSIM faollashtirish kodidan foydalangan holda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun to'lojni amalga oshirish bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

**3.4.4.** Taqdim etilgan Abonent raqam, lotereyalar, viktorinalar tashkil etish va o'tkazish, reklama tarqatish, sotilgan tovarlar (xizmatlar, ishlar) uchun pul yig'ish, homiylik, moddiy yordam ko'rsatish va Shartnoma predmeti sifatida ko'rsatilmagan boshqa maqsadlarda, uchinchi shaxs huquqlarining buzilishi, shuningdek Kompaniya aloqa uskunalari va qurilmalarining ishlashiga ta'sir ko'rsatuvchi harakatlar uchun foydalanilmasligi lozim. Agar yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarda Abonent raqamidan foydalanish aniqlangan va aniq ma'lumotlar bilan tasdiqlangan bo'lsa, yoki yuqoridagi harakatlarning alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda Kompaniya O'zbekiston Respublikasi

amaldagi qonunlari va yangi tahrirdagi Uzbekiston Respublikasi soliq kodeksi asosida davlat organlariga xabar berish huquqiga ega.

**3.4.5.** Abonent, shaxsiy foydalanish uskunalari hisoblanmagan; boshqa Abonentlarning huquqlarini, Sharhnomalarini va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligini buzish orqali Xizmatlardan foydalanishga mo'ljalangan shlyuzlar yoki boshqa maxsus texnik moslamalar/dasturlardan foydalanish, jumladan, uchinchi shaxslarga aloqa xizmatlarini shuningdek, o'zga aloqa operatorlari, statsionar aloqa, internet/IP-telefoniya xizmatlarini va boshqalarni taqdim etish taqiqilanadi.

**3.4.6.** Abonentlar Kompaniya ofislariga murojaat qilganda, talab asosida o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi yoki Kompaniya tomonidan belgilangan boshqa hujjatlarni taqdim etadi.

**3.4.7.** Ro'yxatga olish shaklida (blankida) ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi bo'yicha yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligi va pasport ma'lumotlari) o'zgargan taqdirda, bu haqda Kompaniyaga ushbu o'zgarishlar sodir bo'lgan paytdan boshlab 15 kun ichida xabar berish (Kompaniya ofislariga murojaat qilishi yoki Kompaniya rasmiy veb-sayti orqalik «Shaxsiy ma'lumotlarini yangilash» xizmati orqalik o'zining shaxsiy ma'lumotlarini aktualizatsiyalashi zarur).

**3.4.8.** SIM-karta/eSIM orqali olinayotgan materiallar, ma'lumotlar, xizmatlar va mahsulotlardan foydalanish bilan bog'liq barcha xatarlarni o'z zimmasiga olish:

- a)** internet tarmog'ida;
- b)** ularga kirish Kompaniya tarmog'i orqali ularish yordamida amalga oshiriladigan kontentprovayderlar.

#### **4. HISOB-KITOBLAR TARTIBI VA XIZMATLAR KO'RSATISH**

**4.1.** Xizmatlarga bo'lgan tarifikatsiya Kompaniya tomonidan mustaqil ravishda belgilanib, O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda o'rnatiladi.

**4.2.** Ro'yxatga olish blanki (shakli) tomonlar tarafidan imzolangandan so'ng, abonent minimal miqdordagi to'lojni (minimal to'lov Ro'yxatga olish blanki (shakli) va kompaniyaning rasmiy saytida ko'rsatiladi) amalga oshirishi zarur. Xizmatlardan foydalanish uchun esa abonent tomonidan tanlagan tarif/xizmatlarga avvaldan to'lojni amalga oshirishi zarur. Shaxsiy hisob raqamining dastlabki to'ldirilishi (minimal to'lov) quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

- a)** kompaniyaning sotuv va xizmat ko'rsatish ofislarida naqd pul to'lovi orqali;
- b)** bank plastik kartasi orqali;
- v)** to'lov tizimlari, agentlik tarmoqlari va boshqalar orqali;
- g)** to'lov kartalarida ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq, to'lov kartasini aktivlashtirish orqali.

**4.3.** Xizmatlarning keyingi to'lovi Abonent tomonidan, Sharhnomaning 4.2 bandida ko'rsatilgan usullarda avans to'lovlarni kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**4.4.** Agarda Abonent, pullik/oddiy raqamga ulanganda, raqamning qiymatini yoki tariff reja qiymatini 24 (yigirma to'rt) saat davomida to'lamagan bo'lsa, unda Sharhnomalariga bir tomonlama bekor qilingan hisoblanadi.

**4.5.** PREPAID tizimidagi xizmatlar oldindan to'lov sharti asosida taqdim etiladi. To'lov amalga oshirilgach, Kompaniya Abonentga, tarifikatsiya va xizmatlarni ko'rsatish shartlariga

muvofig, Abonentning shaxsiy hisob raqamida mablag' tugagunga qadar bo'lган to'lov qiymatiga teng xizmatlarni taqdim etadi.

**4.6.** Shaxsiy hisob raqamidagi mablag'lar Kompaniya tomonidan o'rnatilgan minimumgacha pasayganida, Kompaniya Veb saytida ko'rsatilgan shartlar asosida, Abonentning xizmatlardan foydalanish huquqi cheklanadi, shu jumladan, xizmatdan foydalanish vaqtida ham amaldagi shartlarga muvofig cheklar qo'llanilishi mumkin. Xizmatlardan foydalanish va cheklashning boshqa shartlari ham kompaniyaning veb-saytida va/yoki kompaniyaning axborot materiallarida ko'rsatilgan.

**4.7.** Xizmatlardan foydalanish cheklanganidan so'ng – Abonent raqami blok holatiga o'tkaziladi, Abonentga belgilangan muddat davomida shaxsiy hisob raqamini to'ldirish va xizmatlardan foydalanishni tiklash imkoniyati beriladi. Belgilangan muddat, bat afsil, Kompaniya Veb saytida ko'rsatib o'tilgan.

**4.8.** Xizmatlardan foydalangan sari, Abonent hisobidan, xizmatlarga bo'lган amaldagi tarifikatsiya tomonidan belgilangan qiymatlar yechiladi. Xizmatlarga bo'lган tarifikatsiya Kompaniya tomonidan belgilanib, Kompaniyaning Prays - varaqalarida (list) va/yoki axborot materiallarida aks ettiriladi

**4.9.** Hisobga olish, tarifikatsiya tizimida texnik nosozliklar vujudga kelgan hollarda yoki tizimda rejali/rejadan tashqari ishlar amalga oshirilganda, Kompaniya xizmatlarni ko'rsatishdagi nosozliklar bartaraf qilingandan so'ng tarifikatsiya qilish huquqini o'zida qoldiradi.

**4.10.** Xizmatlar har kuni 24 soat davomida, uzlusiz taqdim qilinadi, zarur bo'lган profilaktika va ta'mirlash ishlarining o'tkazilishi bundan mustasno.

**4.11.** Kompaniya tarmog'idagi, xizmatlar ko'rsatilishining to'xtatilishiga olib kelgan, yirik halokatlar vujudga kelgan holatlarda Kompaniya Abonentni bu haqida hamda taxminiy tiklash muddatlari haqida ommaviy axborot vositalari yoki Kompaniya tomonidan tanlangan boshqa usul bilan xabardor qiladi.

**4.12.** Kompaniya Abonentga, uning Shaxsiy hisob raqamida pul mablag'lari mavjud bo'lмаган holda ham, O'zbekiston Respublikasi hududida tegishli xizmatlar uchun o'rnatilgan yagona raqamlarni terish orqali favquloddagi operativ xizmatlarni bepul va kechayu - kunduz chaqirish imkoniyatini beradi.

**4.13.** Kompaniya tomonidan Sharhnomaga asoslangan holda ko'rsatiladigan Xizmatlar to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumot Kompaniya va dilerlik savdo shoxobchalarida, shuningdek, Kompaniya tanlovi bo'yicha ommaviy axborot vositalarida yoki Kompaniyaning Veb saytida joylashtiriladi.

**4.14.** Uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha sharhnomada tuzishda abonent operator xizmatlarini ko'rsatish uchun operatorga o'zining shaxsiy va biometrik ma'lumotlarini qayta ishlashtirga (shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ishlatish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxssizlashtirish va yo'q qilish) rozilik beradi.

Abonent shaxsiy / biometrik ma'lumotlarni uni olish faktini tasdiqlashga imkon beradigan har qanday shaklda qayta ishlashtirga rozilik beradi.

Xizmatlarni taqdim etish jarayonida Abonentning shaxsiy / biometrik ma'lumotlarining bir qismi xizmat ko'rsatishning uzlusizligi va to'g'riligini ta'minlash uchun uchinchi shaxslarga berilishi mumkin.

Kompaniya tarmog'i orqali taqdim etiladigan qo'shimcha xizmatlarga ulanish uchun ro'yxatdan o'tish shaklini imzolash va/yoki so'rov yuborish orqali abonent Abonentning shaxsiy /

biometrik ma'lumotlarini kompaniya tomonidan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatadigan uchinchi shaxslarga (kontent-provayderlar, to'lov agentlari va boshqalar), shuningdek operatorning axborot tizimlarini texnik qo'llab-quvvatlaydigan yetkazib beruvchilarga taqdim etishga rozilik beradi. Abonent qo'shimcha xizmatlardan uzib qo'yilgandan so'ng, ilgari uzatilgan ma'lumotlar operator uskunasining texnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tegishli tizimlarda saqlanishi mumkin.

Abonentning shaxsiy ma'lumotlari (trafik, to'lovlar, ko'rsatilgan xizmatlar va servislar, harakatlar, moliyaviy ma'lumotlar va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlar) kompaniya tomonidan faqat xizmatlar ko'rsatish, shuningdek uchinchi shaxslarga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish uchun yig'iladi, ishlatalidi va qayta ishlanadi (kredit va moliyaviy reyting uchun skoring va boshqalar).

Operator olingan shaxsiy / biometrik ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlaydi. Ularning xavfsizligi va maxfiyligi kompaniya tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiliga muvofiq kafolatlanadi.

**4.15. "COSCOM" MChJ** abonentlarining shaxsiy ma'lumotlarining maxfiylik siyosati bilan quyidagi veb-saytda tanishishib chiqishingiz mumkin: <https://ucell.uz/uz/information/sustainability>

**4.16.** Kompaniya mustaqil ravishda va/yoki uchinchi shaxslar – kontragentlar yordamida Abonentning shaxsiy ma'lumotlarini, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kompaniyaning maxfiylik siyosatiga asosan, o'rnatilgan tartibda xizmat ko'rsatish maqsadida, yig'ish, foydalanish va ularga ishlov berish huquqiga ega.

## 5. MUROJAATLARNI KO'RIB ChIQISH TARTIBI

**5.1.** Abonentlarning xizmat ko'rsatish doirasida yuzaga keladigan savollari yuzasidan, Abonent Kompaniyaga tegishli ariza bilan murojaat qilishi mumkin bo'lib, uning ko'rib chiqilishi amaldagi qonunchilik doirasida va Kompaniya tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

**5.2.** Kompaniya tomonidan Shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda yoki noto'g'ri bajarilganda. Abonent yozma, og'zaki va/yoki elektron shaklda shikoyat qilish huquqiga ega.

**5.3.** Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishni rad etish, shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaslik yoki lozim darajada bajarilmaslik bilan bog'liq masalalar yuzasidan shikoyatlar, telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilgan, uni ko'rsatish rad etilgan yoki hisob taqdim etilgan kundan boshlab 6 oy ichida beriladi.

**5.4.** Abonentlarning murojaatlari, agar boshqasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilmagan bo'lsa, murojaatlarning ro'yxatdan o'tkazilganlik sanasidan boshlab, 30 (o'ttiz) kundan oshmagan muddat davomida Kompaniya tomonidan ko'rib chiqiladi.

**5.5.** Abonent murojaatlari ko'rib chiqilishi natijalari haqida Kompaniya yozma, og'zaki yoki elektron shaklda xabar beradi (Abonentning talabiga muvofiq). Yozma javob pochta orqali buyurtma xat tarzida yoki elektron pochta orqali, shuningdek, Jo'natuvchini qayd etishni ta'minlaydigan boshqa aloqa vositalari orqali yuboriladi yoki Kompaniyaning ofisida Abonentga qo'l qo'ydirib topshiriladi. Og'zaki javob telefon/mobil aloqa orqali taqdim etiladi..

## 6. FORS MAJOR

**6.1.** Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi bilan bog'liq javobgarlikdan, agarda bunday harakatsizlik Shartnoma

tuzilgandan keyin, yengilmas kuch vaziyatlarining natijasida yuzaga kelgan bo'lsa. Tomonlar mavjud bo'lган vositalar yordamida ularning oldini ola olmagan favquloddagi vaziyatlar hisoblanadi. Bunda «favqulodda hodisalar yoki vaziyatlar»ga quyidagilar kiradi: yong'inlar, uchinchи shaxslarning harakatlari, tabiat ofatlari (suv toshqinlari, zilzilalar, va boshqalar), harbiy harakatlar, O'zbekiston Respublikasi vakolatli boshqaruv organlarining harakatlari yoki me'yoriy aktlari, shuningdek, Tomonlarning idrokli nazorati chegaralaridan tashqariga chiqadigan har qaysi boshqa vaziyatlar.

## **7. ShARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI. ShARTNOMANI TUZISH, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI**

**7.1.** Shartnoma Tomonlarning Ro'yxatga olish blankini imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va/yoki Shartnomaning shartlariga asoslangan holda bekor qilingunicha amal qiladi.

**7.2.** Shartnoma Abonent va Kompaniya o'rtasida Kompaniya ofislarida, Kompaniya dilerlari savdo nuqtalarida va mobil ilova orqali, yuz qismining foto/video tasvirini (Face ID) olish yoki Ro'yxatga olish shaklini imzolash orqali tuziladi.

**7.3.** Tomonlar Ro'yxatga olish shakliga (blankiga) imzo qo'yishda Kompanianing vakolatli shaxsi imzosi faksimili tarzida qo'yilishiga kelishadilar.

**7.4.** Kompaniya, Ommaviy Ofertani o'zgartirilgan tahrirda veb saytda joylashtirish yoki ommaviy axborot vositalarining boshqa vositalarida nashr qilish yo'li bilan, o'zgartirishlarning kuchga kirish sanasigacha 10 (o'n) kundan kech bo'lмаган muddat ichida, Ommaviy Ofertaga bir tomonlama ravishda o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalarini kiritish huquqiga ega. Bunday o'zgartirishlar va qo'shimchalar ularni kiritish paytidan boshlab amal qiladi. Abonent, o'zgartirishlar va qo'shimchalardan norozi bo'lган holda, Shartnomaning shartlaridan bosh tortish huquqiga ega, bunda u Kompaniyaga bunday o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan paytdan boshlab 30 (o'ttiz) kun davomida yozma arizani taqdim etishi mumkin. Abonentning noroziligi, bunday holda, Abonentning tashabbusiga binoan va 7.6 bandga asoslangan holda, Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga olib keladi.

**7.5.** Tomonlar Shartnomani uning shartlari bajarilmagan holda, Shartnomada ko'zda tutilgan tartib va shartlarda bekor qilishlari mumkin.

**7.6.** Shartnoma Abonentning tashabbusiga binoan bir tomonlama tartibda, Abonentning yozma ravishdagi, Kompaniya ofislariga taqdim qilingan arizasi asosida va Abonentning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning aslini taqdim qilgan holda bekor qilinishi mumkin. Bunda Abonent, Shartnoma bekor qilinishidan oldin, bekor qilinish sanasida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini to'liq to'lashi shart.

**7.7.** Shartnoma Kompaniya tomonidan bir tomonlama tartibda quyidagi holatlarda bekor qilishi mumkin:

**7.7.1.** Amaldagi Kompanianing boshqa ma'lumot manbalarida, shu jumladan, rasmiy Veb saytida ko'rsatilgan muddat tugaganidan so'ng abonent tomonidan shaxsiy hisob to'ldirilmasa, shuningdek, Kompanianing rasmiy Veb - saytida ko'rsatilgan muddatdan ortiq vaqt davomida abonent bloklangan holatda bo'lган taqdirda.

**7.7.2.** Agarda, Abonent Kompaniya ofisiga Ommaviy Ofertaning 3.1.3.-bandida belgilangan muddatda murojaat qilmagan bo'lsa.

**7.8.** Shartnomaning bekor qilinishida Tomonlar o'zlarining barcha majburiyatlari bo'yicha o'zaro hisob kitoblarni amalga oshirishlari kerak. Abonentning Shaxsiy hisob raqamida qolgan pul mablag'larining qaytarilishi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

**7.8.1.** Abonent Shaxsiy hisob raqamida Shartnomaning bekor qilinishi paytida qolgan pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan belgilangan muddat davomida talab qilish huquqiga ega. Agarda Abonent Kompaniyaga ko'rsatilgan muddatning yakunlanishiga qadar murojaat qilmagan bo'lsa, pul mablag'lari qaytarilmaydi.

**7.8.2.** Promo-balanslardan (bonus ustamalari) mablag'lar, SIM-kartani ulash (aktivlashtirish) uchun to'lov, pullik Abonentlik raqamining qiymati, shuningdek, Abonent tomonidan xarid qilingan, lekin aktivlantirilmagan to'lov Kartalarining qiymati qaytarilmaydi.

**7.8.3.** Mablag' qoldig'ini qaytarish, Ommaviy Ofertaning abonentning yozma arizasi asosida, Kompaniya ofislarida ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 15 ish/bank kuni ichida amalga oshiriladi. Shartnoma bekor qilingan hollarda abonent avans sifatida kiritilgan pul mablag'larini qaytarish uchun Kompaniyaga murojaat qilish huquqiga ega. Bunday holda Kompaniya o'n besh kun muddat ichida pul mablag'larining foydalanimagan qoldig'ini qaytarishga majbur. Shu bilan birga, pul mablag'lari kompaniya tomonidan faqat naqd pulsiz shaklda bank hisob varag'iga yoki abonentga tegishli bank plastik kartasiga yoki Shartnoma bekor bo'lmasidan va raqam o'chirilmasidan avval, mazkur abonentga tegishli boshqa raqamning Shaxsiy hisobiga o'tkazish yo'li bilan qaytariladi.

**7.8.4.** Abonent raqamini Kompaniya tarmog'idan Resipientning tarmog'iga ko'chirishda abonentning shaxsiy hisob varag'ida sarflanmagan mablag'lar aniqlansa, ushbu mablag'larni qaytarish Kompaniya tomonidan Abonentning mablag'ni qaytarish to'g'risidagi yozma arizasi ro'yxatga olingan vaqtidan boshlab, Kompaniya ofislarida 30 ish/bank kuni ichida amalga oshiriladi. Bunda, Kompaniya pul mablag'larini faqat naqd pulsiz shaklda, bank hisob raqamiga yoki Abonentga tegishli bank plastik kartasiga o'tkazish yoki abonent raqami Kompaniya tarmog'idan Resipientning tarmog'iga ko'chirilgunga qadar, Kompaniya bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinishidan avval ushbu Abonentga tegishli boshqa Ucell raqamining shaxsiy hisobiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**7.8.5.** Pul mablag'larining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi so'mda, pul mablag'larini qaytarish Tartibi va amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

## **8. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI**

**8.1.** O'z majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki tegishli tarzda bajarilmaganligi uchun tomonlar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Shartnomada nazarda tutilgan hollarda javobgar bo'ladilar.

**8.2.** Aybdor tomon faqat boshqa tomonga keltirilgan to'g'ridan-to'g'ri zararlar uchun javobgar sanaladi. Bevosita zararlar, ma'naviy zarar, shuningdek, boy berilgan daromad o'rni qayta qoplatilmaydi.

**8.3.** Kompaniya quyidagilar uchun javobgar sanalmaydi:

**8.3.1.** Abonent tomonidan Abonentlik uskunasidan noto'g'ri foydalanganlik holatlarida xizmat ko'rsatishning imkonini bo'lmasa, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi muvofiqlik guvohnomasiga ega bo'lмаган va/yoki O'zbekiston Respublikasining belgilangan standart talablariga javob bermagan Abonentlik uskunasidan foydalanish hollarida.

**8.3.2.** Abonentning buyurtmasiga asoslangan holda Kompaniya tarmog'i orqali uchinchi shaxslar tomonidan tarqatiladigan kontentning mazmuni va sifati, taqdim qilinmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim qilinmaganligi.

**8.3.3.** Abonentning, tasodifiy, bevosita zarari, bilan bog'liq bo'lган ehtimol zararlari hamda xizmatlardan foydalanishda yuzaga keladigan boshqa moddiy yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lган zararlar.

**8.3.4.** Abonentning so'roviga binoan taqdim qilingan ma'lumotning Abonentning shaxsiy kutgan natijasi va uning sub'ektiv baholariga mos kelmasligi.

**8.4.** Abonent Kompanidan ko'rsatilgan xizmatlarga, haq to'lash bo'yicha majburiyatliga hamda, SIM-karta/eSIM yordamida amalga oshirilgan barcha harakatlar va hodisalarga, shuningdek, SIM-karta/eSIM faollashtirish kodini uchinchi shaxslarga berganda shaxsiy javobgarlikka ega bo'ladi. Istisno, SIM –karta/eSIM ning yo'qotilganligi va bu haqda ushbu Ommaviy Ofertaning 3.4.3. bandiga muvofiq tarzda xabar berilganligi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 155-2- moddasi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 278-7- moddasiga asosan o'rnatilgan himoya tizimlarini chetlab o'tgan holda telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanish va xalqaro trafikni o'tkazish maqsadida telekommunikatsiya tarmog'idan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish, shuningdek mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan maxsus dasturiy yoki apparat vositalarini qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) tayyorlash, saqlash va ularning faoliyat ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratish javobgarlikka tortilishi belgilangan.

**8.5.** Abonent, abonent raqami va SIM-karta/eSIM faollashtirish kodi kompanidan faqatgina aloqa xizmatlarini ko'rsatish maqsadida taqdim etilishini tasdiqlaydi. Kompaniya telefon aloqasini qabul qilish/uzatish va abonent raqamining ishlashini ta'minlovchi texnik ijrochi hisoblanadi. Abonent bank xizmatlari, shu jumladan shartnomada doirasida ajratilgan abonent raqamiga masofaviy bank xizmatlarini ularsga oid xavflar va Abonentning kredit tashkilotlaridagi hisob raqamlarida naqd pul o'g'irlanishi yoki noma'lum shaxslar tomonidan SIM-karta/eSIMni faollashtirish kodini almashtirish orqali kreditlar berilishiga olib kelishi mumkinligi xaqida ogoxlantirildi va tushuntirildi. Abonent, abonent raqami bilan texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan bank xizmatlariga buyurtma berish to'g'risida qaror qabul qilganda, shu jumladan abonentga operatsiyalar to'g'risida xabar berish, parolni tiklash, boshqa tashkilotlarda identifikatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilganda, abonent zararning barcha xavfini, kredit tashkilotlaridagi hisob varaqlardan pul yo'qotilishi va ularning yo'qolishi uchun mustaqil ravishda javobgar bo'ladi va kompaniyaga zararni qoplash, ma'naviy zarar va boshqa talablarni qoplash talabidan voz kechadi. Abonent, shuningdek, abonent raqamini turli xil Internet manbalariga, shu jumladan elektron pochta, ijtimoiy tarmoq saytlari, messengerlar va boshqa manbalarga kirish uchun identifikator sifatida ishlatganda kompaniya tomonidan yetkazilgan zarar va boshqa talablarni qoplash talabidan voz kechadi. Hisoblar va xizmatlar uchinchi shaxslar tomonidan buzilishi mumkinligi sabab, abonentga shartnomada bo'yicha ajratilgan abonent raqami bilan texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan hisoblarni va boshqa xizmatlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun shartnomada bo'yicha ajratilgan abonent raqamidan foydalanish xavfsiz emasligi haqida xabar beriladi. Abonent to'liq javobgarlik bilan, uchinchi tomon xizmatlariga buyurtma berishi, Internetda materiallar, ma'lumotlar, hisoblar, xizmatlar va mahsulotlardan foydalanish bilan bog'liq xavflarni o'z zimmasiga oladi, ularga texnologik kirish kompaniya tomonidan taqdim etiladi.

**8.6.** Abonent Donor oldidagi qarz aniqlanganda abonent qarzni to'lash zarurligi to'g'risida SMS-xabar yuborish yo'lli bilan abonent qarzini to'lash zarurligi va Kompaniya bilan o'zaro hisobkitoblarni amalga oshirishi zarurligi to'g'risida xabardor qilinadi.

## **9. QOLGAN QOIDALAR**

**9.1.** Abonentga ko'rsatiladigan xizmatlar, radioto'lqinlar tarqalishining tabiiy sharoitlari sababli, yomonlashishi, uzilishi yoki shovqinlar bilan kuzatilishi mumkin.

**9.2.** Abonentga ko'rsatiladigan xizmatlar, konstruktiv xususiyatlar sababli, Kompaniya kompetentsiyasi doirasidan tashqarida bo'lgan, boshqa mobil va statsionar aloqa tarmoqlarining Operatorlari telefon aloqasining sifatiga bog'liq bo'ladi. Kompaniya uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini, uning texnik xususiyatlari va xizmat ko'rsatish doirasini inobatga olgan holda ko'rsatadi.

**9.3.** Kompaniya O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining qarorlarini bajarish bo'yicha ishlarni, shuningdek, xizmatlar ko'rsatilishining sifatini vaqtincha yomonlashishi va uzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan, ishlab chiqarish zaruriyati bilan bog'liq ishlarni olib borish huquqini o'z tasarrufida qoldiradi. Abonent, agar ko'rsatiladigan Xizmatlar sifati yomonlashishi va uzilishlar davri uzlusiz ravishda 24 soatdan oshmagan taqdirda, Kompaniya uning oldida javobgar bo'lmasligiga o'z rozilagini bildiradi.

**9.4.** USSD so'rov orqali abonent raqamidan so'ralgan ma'lumotlar maxfiy ma'lumot sanalmaydi. Kompaniya tegishli abonent raqamidan Kompaniyaning Call-centr orqali murojaat qilgan shaxslarga USSD so'rov orqali olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish huquqiga ega.

**9.5.** PREPAID tizimida Shartnomaning qayta tiklanishi (Shartnomaning bekor qilinishidan keyin qayta tiklanishi) amalga oshirilmaydi.

**9.6.** Tomonlar yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni faqat muzokara yo'lli bilan bartaraf etish uchun hamma harakatlarni amalga oshiradilar. Muzokalar yordamida kelishmovchiliklarni bartaraf qilish imkoniyati mavjud bo'limganida, tomonlar O'zbekiston Respublikasi sud organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tarzda murojaat qiladilar.

**9.7.** Ommaviy Ofertada tartibga solinmagan masalalarda tomonlar telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalari va amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining boshqa normativ-huquqiy aktlariga, shuningdek, Kompaniyaning ichki hujjatlariga asoslanadilar.

**9.8.** Ushbu Ommaviy oferta bir xil huquqiy kuchga ega bo'lgan o'zbek, ingliz va rus tillarida chop etildi. Nomutanosibliklar yuzaga kelganda, o'zbek tilidagi matn ustunlikka egadir.

## **10. KOMPANIYA REKVIZITLARI**

### **«COSCOM» MChJ**

Yuridik manzil: O'zbekiston Respublikasi, indeks 100031, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, V.Vaxidov ko'chasi, 118 uy.

Bank rekvizitlari:

H/r 20208000000457913001 "O'zsanoatqurilishbank" ATB operatsion boshqarmasi

MFO: 00440

STIR: 201788904

OKED 61200